

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Tarix fakulteti

“O‘zbekiston tarixi” kafedrası

QADAMOVA QIZLARXON

**“YOSH XIVALIKLAR” TASHKILOTI VA
UNING FAOLIYATI TARIXI**

5220200 – Tarix bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar

t.f.n. G. Normurodova

SAMARQAND - 2016

MUNDARIJA

KIRISH.....	4-11
1-BOB. XORAZMDA “YOSH XIVALIKLAR” TASHKILOTINING TASHKIL TOPISHI VA ULARNING ISLOHOTCHILIK FAOLIYATI.....	12-30
1.1. XX asr boshlarida Xiva xonligida ijtimoiy-siyosiy ahvol.....	12-18
1.2. Yosh xivaliklar tashkilotining tashkil topishi va ularning islohatchilik faoliyati.....	19-30
2-BOB. XIVA XONLIGINING TUGATILISHI. XXSR VA YOSH XIVALIKLAR.....	31-57
2.1. XXSR ning ijtimoiy-siyosiy hayotida Yosh xivaliklarning faoliyati.....	31-44
2.2. XXSR ning iqtisodiy va madaniy hayotida Yosh xivaliklarning faoliyati.....	45-57.
XULOSA.....	58-60
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR.....	61-62

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekistonning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, o‘zbek davlatchiligi tarixini xolis o‘rganish yangi ilmiy-tadqiqot ishlarini miqdor va sifat jihatdan yuqori saviyaga ko‘tarish zaruratini taqozo etdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 1998 yil 26 iyunda bir guruh tarixchi olimlar va ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan uchrashuvida o‘zbek davlatchilik tarixini zarur manbalar asosida haqqoniy o‘rganish va kelajak avlodga etkazish zarurligi uqtirilgan edi¹.

Shu o‘rinda O‘zbekiston tarixida muhim o‘rin tutgan Xiva xonligi tarixini o‘rganish, unga xolisona baho berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xonlikning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixi o‘zbek davlatchiligi tarixining bosqichi sifatida alohida ahamiyatga egadir. Bu davrda Xiva xonligi vassal davlat sifatida Rossiyaga qaram bo‘lib, o‘z siyosiy mustaqilligini yo‘qotgan, lekin ichki boshqaruv tizimini saqlab qolgan edi. Bu qaramlikning asosiy sababi yurtboshimizning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida ta’kidlanganidek: “XIX asrdagi chorizm istilosi ko’pgina sabablar bilan bir qatorda, avvalambor o’sha paytda mavjud bo’lgan siyosiy boshboshdoqlik, hukmron kuchlarning uzoqni ko’ra olmasligi, ma’naviy zaifligi oqibatida ro’y berganini tarixiy misollar isbotlab turibdi”². Shu bilan birgalikda, ushbu kitobda, chorizm mustamlakasi davrida ma’rifat g’oyasini baland ko’tarib choqqan jadid bobolarimizning faoliyati misol qilinib, ularning o‘z shaxsiy manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o’chmasligi, yana bir bor ta’kidlangan.

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: Шарқ, 1998. – 316.

² Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 52.

Yuqoridagilarni e'tiborga olib, Xiva xonligida ana shunday taraqqiyot uchun kurashgan "Yosh xivaliklar" harakati hamda uning Xorazm tarixida tutgan o'rnini o'rganib yoritish yosh tarixchi olimlar oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Shu bois ham, ushbu bitiruv malakiy ishning mavzusi "Yosh xivaliklar tashkiloti va uning faoliyati tarixi" deb nomlanib o'rganilishi lozim bo'lgan mavzu sifatida tanlandi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifasi. Bitiruv ishining asosiy maqsadi - Xiva xonligi hamda Xorazm Respublikasi tarixida muhim o'rin tutgan "Yosh xivaliklar" tashkiloti va uning faoliyati tarixini o'rganib yoritishdan iborat. Maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- XX asr boshlaridagi Xiva xonligi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganish va ma'lumot berish;
- Xorazmda "Yosh xivaliklar" tashkilotining tashkil topishi va ularning islohotchilik faoliyatini o'rganish va bu orqali:
- Yosh xivaliklar tashkilotining tashkil topishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy omillarni tahlil qilish;
- Yosh xivaliklarning davlatchilikni isloh qilish yo'lidagi harakatlarini yoritish;
- Xiva xonligining tugatilishi, XXSR ning tashkil topishi uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida Yosh xivaliklar vakillarining tutgan o'rnini ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Mavzuning o'rganilishi darajasi.

O'rganilayotgan mavzu doirasidagi yaratilgan tadqiqotlar, adabiyotlar, maqolalar ro'yxatini tahlil qilish natijasida ular quyidagi guruhlarga bo'lindi:

1. Sovet davri tadqiqotlari;
2. Mustaqillik davrida amalga oshirilgan ilmiy ishlar.

Birinchi guruhga mansub tadqiqotlar¹ asosan, sovet davrida olib borilgan ilmiy adabiyotlar, monografiya va boshqa turdagi ilmiy ishlar kiradi. Bunday tadqiqotlar asosan, M. Yo'ldoshev, G.Nepesov, T. Tuxtametov, K.Muhammadberdiev, I.V.Pogorelskiy, N.Qalandarov, va boshqalar tomonidan qilingan.

Ikkinchi guruhga oid ishlar asosan mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixini xolis o'rganish imkoniyati tufayli, yangicha tarixiy ilmiy-metodologik nazariyalar asosida ilmiy tadqiqot ishlari bajarildi. Mustaqillik davrida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda Turkiston, Xiva, Buxoro jadidlari, shu bilan birgalikda Xiva xonligidagi ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy hayot, ayrim ma'rifatparvarlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati muhim ahamiyat kasb etganligi o'z isbotini topdi². Ayniqsa, D.Alimova³, S.Ahmedov⁴, Q.Rajabov⁵,

¹ М. Йўлдошев. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент, 1959.; Г.Непесов. Из истории Хорезмской революции. Т.: Узбекистон, 1962.; Т. Тухтаметов. Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. – М.: Наука, 1969.; К.Мухаммадбердиев. История Хорезмской революции. Т.: Фан, 1986.; И.В.Погорельский. История Хивинской революции и Хорезмской Народной Советской Республики. –Л.: Университет, 1984.; Н.Қаландаров. Образование и деятельность ХКП. – Т.: Узбекистон, 1975.

² Жади́дчи́лик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Т.: Университет, 1999; Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жади́длар ҳаракагидан миллий мустақилликка қадар. Т.: Эльдинур, 1998.

³ Алимова Д.А. история как история, история как наука. 2 часть. – Ташкент: Узбекистан, 2009. Алимова Д.А, Рашидова Д.А. Махмудхўжа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури. Т.: Академия, 1999.

⁴ Аҳмедов С., Ражабов Қ. Жади́дчи́лик //Ўзбекистон миллий энциклопедияси (ЎзМЭ). Т. 3. Т.: Ўз МЭ нашриёти, 2002. - 519-523-бетлар.

⁵ Ражабов Қ.. Ёш хиваликлар. //Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т. 3. – Тошкент, 2002. 498-500-бетлар.

S.Xolboev, M. Matkarimov¹, O. Qo‘shjonov, N. Polvonov va boshqalarning ishlarida bunday fikrlar ustunlik qiladi.

Jumladan, bu davrda tarixshunoslikda tarixni haqqoniy va xolis yoritish bo‘yicha tashlangan ilk qadam M. Matkarimov tadqiqotlarida o‘z ifodasini topdi. Uning Xorazm Respublikasi tarixiga bag‘ishlangan kitobi hamda Yosh xivaliklar tashkiloti faollaridan bo‘lgan Povonniyoz Hoji YUsupovga va uning " Xotiralar " iga bag‘ishlangan ilmiy maqolalarida o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlarni olish mumkin. Jumladan, Xorazm Respublikasi tarixiga bag‘ishlangan kitobda, ilk bor XXR faoliyati, nozirlari olib borgan siyosat haqqoniy yoritilib, Yosh xivaliklarning faoliyati ham qalamga olib o‘tilgan.

"Xorazm tarixi"²nomli ikki tomli kitobda, xududning tarixi, ma’muriy-xududiy bo‘linishi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvoli, madaniy hayot, Rossiya va Xiva munosabatlari, Xiva xonligining vassal davlatga aylantirishi, Yosh xivaliklar " tashkiloti faoliyati va boshqa milliy-ozdlik harakatlari tarixi yoritilgan.

Hammualiflikda yaratilgan monografiya va O‘zbek davlatchiligi tarixi ocherklari"nomli kitoblarda³, davlatchilik tarixida Xiva xonligini tutgan o‘rni, uning ijtimoiy-siyosiy tarixi, Xorazm Respublikasining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tarixi keng tahlil qilingan.

¹ M.Маткаримов. Хоразм республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. – Урганч, 1993.; Холбоев С. Жади́дчи́лик ва истибдод (Хоразм республикаси ҳақида). //Ишонч, 1997 йил, октябрь.

² Хоразм тарихи. 1-2жилдлар. – Урганч: Хоразм, 1997. – 418, 298 б.

³ Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. //Коллектив авт. – Т.: Шарк, 2000. – 672 с.; Ўзбек давлатчилиги тарихи очерклари / Масъул муҳаррирлар: Д. Алимова,Э.Ртвеладзе. – Тошкент: Шарк, 2001.- 224 б.

XX asr boshlaridagi Xiva xonligi ijtimoiy-siyosiy tarixi hamda siyosiy harakatlar tarixiga bag'ishlangan O.Qo'shjonov va N.Polvonovlar tomonidan "Xorazmdagi ijtimoiy siyosiy jarayonlar va harakatlar"¹, N. Polvonov tomonidan "Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi (1900-1924)" deb nomlangan monografiyalar ham mavzuni o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Bitiruv malakaviy ishining manbashunoslik asosini o'sha davrda Xiva xonligida yaratilgan mahalliy asarlar tashkil qildi. Ana shunday asarlar jumlasiga Polvonniyoz Hoji Yusupovning Yosh xivaliklar faoliyatiga bag'ishlangan asari katta ahamiyatga ega². Ushbu kitobda muallif o'z ko'zi bilan ko'rgan va guvoh bo'lgan, xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni, Yosh xivaliklar faoliyati va bu harakatga nisbatan xon ma'muriyatining munosabati xolislik bilan tahlil etilgan.

Xorazm tarixnavislik maktabining vakillaridan biri Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy", va "Xorazm tarixi" deb nomlangan asarlari³ muhim ahamiyat kasb ega. "Shajarai Xorazmshohiy" asarida Xorazmning qadimgi davridan 1914 yilgacha bo'lgan tarixi qamrab olingan.

Mustaqillik yillarida tarixiy manba va arxiv hujjatlar asosida xolis yoritilgan, hammualliflikda yaratilgan O'zbekistonning sovet mustamlakachiligi davri tarixiga bag'ishlangan, O'zbekistonning yangi

¹ O.Qўshjonov. N.Полвонов. Хоразмдаги ижтимоий сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар.(XIX аср иккинчи ярми ва XX аср биринчи чораги). – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007. – 388 б.; Н. Полвонов. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924).

² Юсупов П.Х. Ёш хиваликлар тарихи (Хотиралар). - Урганч: Хоразм, 2000.; Shunidek, ushbu kitobni P. Xojiyusupov tilidan keltirilgan matni Umid Bekmuhammad tomonidan nashrga tayyorlanib "Yosh xivaliklar harakati: quvonchlar iztiroblar, fojealar" deb nomlanib, ziyo.com.uz.tarmog'iga kiritilgan.

³ Баёний. Шажарайи Хоразмшохий. Т., 1992. 103-бет.

tarixining 2-kitob¹ lari ham bitiruv ishi uchun muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi ilk bor Yosh xivaliklar tashkiloti va uning faoliyati tarixining mazmun-mohiyatini yoritish bilan belgilanadi. Tarixiy, ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish asosida ilk bor Yosh xivaliklar tashkiloti va uning faoliyati tarixi o'rganilib yoritildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi uning quyidagi ilgari surilgan masalalarni yoritilishida o'z aksini topgan: XX asr boshlaridagi Xiva xonligi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganish va ma'lumot berish; Xorazmda "Yosh xivaliklar" tashkilotining tashkil topishi va ularning islohotchilik faoliyatini o'rganish va bu orqali: Yosh xivaliklar tashkilotining tashkil topishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy omillarni tahlil qilish; Yosh xivaliklarning davlatchilikni isloh qilish yo'lidagi harakatlarini yoritish; Xiva xonligining tugatilishi, XXSR ning tashkil topishi uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida Yosh xivaliklar vakillarining tutgan o'rini tahlil etildi va ilmiy xulosalar berildi.

Tadqiqotning predmeti va ob'ekti. Tadqiqotning predmeti va ob'ekti XX-asr boshlaridagi taraqqiyparvarlik harakati bo'lgan Yosh xivaliklar harakati va uning faoliyati tarixi hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishidan olingan umumiy xulosa va natijalardan talaba yoshlar milliy o'zlikni anglash, barkamol avlod bo'lib shakllanishi uchun, o'z milliy tarixi to'g'risida xolisona mustaqil fikr-mulohazalar bildirish, shuningdek O'zbekiston tarixi bo'yicha etarli ko'nikmaga ega bo'lish imkonini beradi.

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-қисм. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б.; Jo'rayev N.Karimov SH. O'zbekiston tarixi. – Toshkent, Sharq, 2011.- 720 b.

Bundan tashqari, ta'lim tarmoqlari saytiga kiritilgan bitiruv ishi mavzusidan o'quvchi, talabalar mustaqil ish, kurs ishi hamda bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Ishning qisqacha mazmuni. Malakaviy bitiruv ishining asosiy mazmunida, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, ya'ni xonlikning protektorat ostida bo'lishi, og'ir ijtimoiy tuzum, soliq-to'lovlar, xalqning og'ir ahvoli kabilar xonlikda taraqqiyparvar kuchlarning etilishiga sabab bo'ldi. Bu asosiy ijtimoiy harakat jadidchilik harakati bo'ldi. Rus bosqinidan keyin mustaqillikning yo'qotilishi, siyosiy haqsizlik va adolatsizlik butun jamiyat ahlini Rossiya davlatiga qarshi kuchli muxolifatga aylantirdi. Ularning orasida yangiliklar tarafdorlari bo'lgan amaldorlar, mahalliy boylar va savdo axli, taraqqiyparvar musulmon ruhoniylari, madrasa mudarrislari va toliblari, ma'rifatparvar vakillari ham bor edi. Ular "Yosh xivaliklar" tashkiloti nomi ostida o'zlarining islohatchilik kurashlarini olib bordilar.

1917 yilgi Rossiyadagi siyosiy voqealar, ya'ni podsho hokimiyatining ag'darib tashlanganligi haqidagi xabarni Xiva xonligi jamiyatining eng ilg'or vakillari bo'lgan jadidlar ayniqsa umid bilan qarshi oldilar. "Yosh xivaliklar" harakati vakillari o'z mamlakatlarining tarixiy shart-sharoitlarini e'tiborga olib, dastlabki paytlarda monarxiyacha tuzumni yo'q qilishni o'z maqsadlari qilib qo'ymadilar. Bu taraqqiyparvarlar avvalo yuqoridan turib demokratik islohatlar o'tkazish yo'li bilan xonliklarning kapitalizm va ijtimoiy taraqqiyot yo'lida rivojlanishini ta'minlashga harakat qildilar.

Yosh xivaliklarning dastlabki islohatchilik harakati 1917 yil 5 aprelda - Xorazm tarixida ilk bor xalqni namoyishga chorlab, Asfandiyorxon saroyida uni manifest imzolashga, idorai marshrutiya –parlamentar kengash tuzishga majbur qiladi.

Asfandiyorxon, uning atrofidagi reaksiya amaldorlar progressiv o'zgarishlar, ayniqsa, xon hokimiyatining cheklanishini istamadilar. Yosh xivaliklar hamda Majlisga qarshi doiralar o'z kuchlarini to'play boshladilar va qarshi harakatga kirishdilar. Asfandiyorxon Yosh xivaliklarga qarshi fitna uyushtiradi. Yosh xivaliklar hukumati faoliyatining dastlabki bosqichi (1917-yil 26-apreldan iyun o'rtalarigacha) shu bilan yakunlandi. Asfandiyorxon o'z mavqeini mustalikamladi, demokratik o'zgarishlar jarayoniga to'siqlarqo'yildi, xon manifestida aytilgan islohotlar bekor qilindi.

Tashkil etilgan Kengash Asfandiyorxon va uning muttassib amaldorlari tomonidan tarqatib yuborilgach, yuqoridagi shaxslar turli shaharlarga boshpana izlab, siyosiy qochoq sifatida ketishga majbur bo'ldi. Shunday qilib, bu harakatning dastlabki islohatchilik faoliyati mana shu tarzda yakun topdi.

Keyinchalik, Xorazm Respublikasining (XXSR) tashkil topishi va uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ham Yosh xivaliklarning roli katta bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yosh xivaliklar harakati 1904-1905 yillarda hamfikrlar, 1910 yil boshlarida manfaatlar guruhi sifatida shakllangan bo'lsa, 1917 yilda amaldorlar, ma'rifatli boylar, milliy burjuaziya va ziyolilarning Xiva xoniga muxolifatdagi siyosiy kuch, 1918 yilda esa rasmiy siyosiy partiya sifatida namoyon bo'lgan.

1-BOB. XORAZMDA “YOSH XIVALIKLAR” TASHKILOTINING TASHKIL TOPISHI VA ULARNING ISLOHOTCHILIK FAOLİYATI

1.1. XX asr boshlarida Xiva xonligida ijtimoiy-siyosiy ahvol

XX asr boshlariga kelib Xiva xonligi ijtimoiy-siyosiy tarixida bir muncha jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Xiva xonligida jamiyatni yangilash uchun islohatchilik harakati tobora keskin tus ola boshladi. Turkiston taraqqiyparvarlari bilan ayni bir vaqtda vujudga kelgan Buxoro kabi Xivaning demokratik ruhdagi Yosh ziyolilari ham shu davrda siyosiy tus ola boshladi.

Turkiston taraqqiyparvarlaridan farqli ravishda, Buxoro va Xiva ma'rifatparvarlarining asosiy muxolifi o'z davlatlarining hukmdorlari bo'lgan. Ular o'zlarini “Yosh xivaliklar” deb atab .taktika sohasida mo“tadil islohatchilar sifatida kurash maydoniga chiqdilar. Konstitutsion monarxiya ularning pirovard maqsadlari edi. Ammo bu milliy taraqqiyparvarlarning ana shu o'rta miyona talablari ham shiddatli qarshilikka duch keldi, qattiqqo'llik bilan bostirildi.

Bu davrda Xiva xonligi podsho Rossiyasining protektorati ostida bo'lsa ham, rasman monarxiya davlati edi. Xiva xonligida Asfandiyorxon va turman urug'-sardorlari cheklanmagan hokimiyatga ega edilar. U oliy hukmdor sifatida cheklanmagan huquqga ega edi. Musulmon ruhoniylari monarxiya tartibining ishonchli tayanchi edi. Ko' jihatdan xalq ommasiga o'zining ta'siri bilan kuchli bo'lgan bu musulmon ruhoniylari monarx bilan xalq o'rtasidagi mustahkam bog'lovchi bo'g'in bo'lib, jamiyatda hukmronlik ta'siri kuchli edi.

Yosh xivaliklar o'z yurtida xalqning keng qo'llab-quvvatlashiga, ijtimoiy tayanchga ega bo'lmaganliklari tufayli o'zlariga tashqaridan ittifoqchilar qidirishga – Rossiyada, aynan qo'shni Turkiston

gubernatorligida, shuningdek, xonliklarning o'zida Rossiya fuqarolari orasida shunday ittifoqchilarni izlashga majbur bo'ldilar.

Podsho Rossiyasining Xiva xonligidagi yarim protektoratligi bu erda Rossiya davlatining mavqeini kuchaytirdi. Rossiya bilan tashqi savdo aloqalarining mustahkamlanishi, Rossiya sarmoyasini olib kirishning kuchayib borishi, Zakaspiy temir yo'lining qurilishi bu erda burjua munosabatlari qaror topishi uchun etarli darajada ta'sirchan omil bo'ldi. Xonlikda savdo, sanoat sohasini egallagan rus kapitalistlari qo'llarida bo'lgan fabrika-zavod korxonalari, banklar, savdo firmalarining paydo bo'lganligi Rossiya iqtisodiyotining asosan xom ashyoga bo'lgan talabini, uning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'libgina qolmasdan, balki Rossiya fuqarolari – amaldorlar, sanoatchilar, savdogarlar, ishchilar, podsho garnizonlarining zobitlari, soldatlari, xristian ruhoniylar va shu kabilarning bu erga ko'chib kelishi kuchayishiga olib keldi., ular yashaydigan alohida manzilgohlar yuzaga keldi¹. Temir yo'llar va daryo pristanlari bo'ylarida vujudga kelgan bunday manzilgohlar juda tez o'sib yirik shaharlarga aylandi, masalan shunday shaharlardan biri YAngi Urganch yiriklaridan biri edi.

1917 yil fevralda Rossiyada bo'lgan demokratik inqilobning g'alabasi va "oq podsho" ning taxtdan voz kechganligi haqidagi xabar xonliklar xalqlari tomonidan katta quvonch bilan kutib olindi. Ular bu tarixiy voqeani o'z mamlakatlarining podsho imperiyasi mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lishi hamda mustaqillik va taraqqiyot yo'lidan rivojlanishi uchun imkon beradigan ilohiy kuch sifatida qabul qildilar. Podsho samoderjaviyasining ag'darib tashlanganligi haqidagi xabarni jamiyatni jamiyatning eng ilhor vakillari bo'lgan jadidlar ayniqsa umid bilan qarshi oldilar. "Yosh xivaliklar" nomi bilan atalgan bu harakat vakillari o'z mamlakatlarining tarixiy shart-

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-қисм. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 20-21.

sharoitlarini e'tiborga olib, dastlabiki paytlarda monarxiyacha tuzumni yo'q qilishni, feodal er egaligini cheklashni o'z maqsadlari qilib qo'ymadilar. Bu taraqqiyarvarlar avvalo yuqoridan urib demokratik islohatlar o'tkazish yo'li bilan xonliklarning kapitalizm va ijtimoiy taraqqiyot yo'lida rivojlanishini ta'minlashga harakat qildilar.

1913-14 yillarda Asfandiyorxon saroyida avj olgan turli guruhbozlik tufayli xonlikda ziddiyatli voqealar avj olib ketadi. Taraqqiyparvar bosh vazir, xonlikda juda katta islohotlarni boshlab yuborgan Islomxo'ja 1913 yil avgustida o'ldiriladi.



Asfandiyorxon (o'rtada) o'z a'yonlari bilan Sankt-Peterburgda. Uning o'ng tomonida Sayid Islomxo'ja va Matniyoz Devonbegi, chap tomonidan ikkinchi Matvapo karvonboshi o'tiribdi (1911 yil)



Хива хони Ферузхон



Хива хони Исфандиёрхон

Bu davrda amaldorlar xalq ommasini ustidan zo'ravonlikni davom ettirdilar. Soliqlarni yig'ishtirib olishda tartib va izchil qoidalarning yo'qligi, oddiy fuqarolarga nisbatan adolatsizliklar jamiyatda norozilikning kuchayib borishiga olib keldi. Iqtisodiy hayotning izdan chiqishi natijasida ochlar soni ko'paydi, ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashdi. Asfandiyorxon turli guruhbozlarig'vosiga berilib o'z amaldorlari fitnasi girdobiga tushib qoladi.

XX asr boshlarida Xiva xonligida erga egalik munosabatlarining o'rta asrlarga xos shakllari to'la saqlangan holda u iqtisodiy hayotda muhim rol o'ynashda davom etdi. SHu bilan birga, pul va bozor munosabatlariga asoslangan yangi munosabaglar, manufaktura, zavod-fabrika sanoati ham shakllana bordi. Xonlik iqtisodiyoti Rossiya bozoriga tortila borgan sayin soliqlar miqdori ham oshib borganligi kuzatiladi. Bu yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonda Xiva xonligi aholisining tabaqalanishi kuchaydi. Milliy burjuaziya bilan bir qatorda ersiz, ishsiz aholi guruhi ham ko'paydi.

XX asr boshlaridagi Xiva xonligi boshqaruv tizimi va siyosiy hayotida Rossiya hukumatining ta'siri, uning ichki ishlariga aralashuvi yanada

kuchaydi. Hatto 1910 yil avgust oyida Muhammad Rahimxon II (Feruz) vafotidan keyin Xiva xonligi taxtiga valiahdni xon qilib ko'tarishda ham podsho Rossiyasi, uning Turkiston o'lkasi general-gubernatori va Amudaryo bo'limi harbiy boshligi katta rol o'ynadi. Bo'lg'usi xonga mamlakatda islohotlar o'tkazish shartini yuklab, keyin Asfandiyorxon To'rani xon deb e'lon qildi. SHu sababdan 1910-1913 yillarda Xiva xonligida vaziri akbar Islomxo'ja rahbarligida qator islohotlarni amalga oshirishga harakat qilindi. Bu islohotlar XX asr boshlarida xonlik taxti atrofida boshlangan guruhbozlik kurashini avj oldirdi. Natijada Asfandiyorxon vaziri Islomxo'ja qo'li bilan eski xon amaldorlarining mol-mulkini musodara qilib, ularni Islomxo'jaga dushman qilib qo'ydi va buning oqibatida Islomxo'jaga qarshi fitna uyushtirildi va u halok bo'ldi. Bu esa islohotlarning to'xtab qolishiga sabab bo'ldi.

Dastlab, Xiva xonligida ma'orif sohasidagi islohatlar ancha yengil kechdi. Bunga sabab, Xiva xoni Muhammad Raxim I (Feruz) madaniyat yangi texnologiyalar tarafdori edi. 1874 yilda uning tashabbusi bilan Rossiyadan Xivaga litografiya stanogi keltirildi. Aytish joiz, xonlikda yangi maktablarning ochilishi Buxorodagiga nisbatan hukumat qarshiligiga uchramadi. Feruzning o'zi maktablar tashkil etishni qo'llab quvvatladi, shu bois yuqori tabaqa amaldorlar ham shu yo'ldan bordilar.

1906 yilda uning ruxsati bilan Urganchda qizlar maktabi ochiladi. Shuningdek, ma'orif sohasida islohatlarda xonlik bosh vaziri hisoblangan Islom Xo'ja ham faol harakat olib bordi. U o'zining taraqqiyparvarlik qarashlar bilan, Xivada to'liq jadidchilik harakatini qo'llab-quvvatladi.

Natijada, "Yosh xivaliklar" harakati 1904-1905 yillarda shakllana boshlagan, odatda o'z do'kon, uylaridagi ziyofatlarda birika boshlagan mulkdor, savdogarlardan iborat qatlam, 1910-1914 yillarda manfaatlar guruhi sifatida to'plandi.

Yosh xivaliklar boshchiligidagi Majlis qator masalalar bilan shug'ullandi. Maorif islohotini o'tkazish, amaldorlar daromadlarini hisobga olish va nazorat qilish, boshqaruvni markazlashtirish, yo'llar va aloqa vositalari-rini rivojlantirish ana shunday masalalardan edi. Majlis va Yosh xivaliklar hukumati mamlakatning tashqi aloqalarini yo'lga qo'yishga ham harakat qildilar. Bu xalq ommasining o'sishiga ancha ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xiva xonligi ma'rifatparvarlari va rahbarlari, jumladan, Boboxxun Salimov, P.Yusupovlar tashabbusi bilan yangi Urganch, Qo'ng'iro't, Gurlan, Shovotlarda yangi maktablar ochildi. Shuningdek bu boradi, «Jamiyati xayriya» tashkilotining ham o'rni muhim bo'lib, u mablag' yig'ib yangi maktablar tashkil etishdi. B.Salimov va B.Raximovlar boshlang'ich maktablar uchun yangi darsliklar yaratdilar¹.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xiva xonligidagi siyosiy masalalardan biri xon hukumati va turkmanlar orasidagi munosabatlar masalasidir. Turkman urug'larining 1910 yildan keyin xon siyosatiga va umuman mustamlakachilik siyosatiga qarshi chiqishlari avj oldi. Birinchi jahon urushi yillarida mamlakat ichkarisidagi har qanday muammoni iloji boricha tinchlik yo'li bilan hal qilishga intilayotgan Rossiya hukumati Xiva xoni va turkmanlar o'rtasidagi nizolarni ham tinchlik asosida bartaraf etish uchun 1915 yilda Junaidxon (Qurbon Mamed sardor) va Asfandiyorxonni o'zaro kelishtirib qo'ydi. Lekin 1916 yildagi Xiva qo'zg'olonining oldini rus hukumati ham ololmadi. Junaidxon mahalliy isyonchilarni ko'llab, ularni xon zindonidan ozod qilishga erishdi, lekin Galkin boshchiligidagi jazo otryadi kelganda turkman jangovar otryadlari Qoraqum cho'liga chiqib ketib, qutulib qoldi, o'zbek aholisidan bo'lgan isyonchilar esa osib o'ldirildi.

¹ Алимова Д.А. История как история, история как наука. 2 часть. – Ташкент: Узбекистан, 2009. – С.57.

Xonlikning siyosiy, iqtisodiy hayotida boshqa turdagi voqealar ham sodir bo'ldiki, natijada vaziyat o'ta murakkablashdi va chigallashdi. Jahon urushi xonlikning chetga paxta, beda urug'i, boshqa mahsulotlar sotishiga, bir qator mollarni olib kelishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Paxta ekin maydonlari qisqardi, paxta tozalash zavodlari ishi to'xtadi. Hunarmandlar uchun temir, ba'zi boshqa mollar taqchil bo'lib bordi.

1.2. Yosh xivaliklar tashkilotining tashkil topishi va ularning islohatchilik faoliyati

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, ya'ni xonlikning protektorat ostida bo'lishi, og'ir ijtimoiy tuzum, soliq-to'lovlar, xalqning og'ir ahvoli kabilar xonlikda taraqqiyparvar kuchlarning etilishiga sabab bo'ldi. Bu asosiy ijtimoiy harakat jadidchilik harakati bo'ldi. Rus bosqinidan keyin mustaqillikning yo'qotilishi, siyosiy haqsizlik va adolatsizlik butun jamiyat axlini Rossiya davlatiga qarshi kuchli muxolifatga aylantirdi. Ularning orasida yangiliklar tarafdorlari bo'lgan amaldorlar, mahalliy boylar va savdo axdi, taraqqiyparvar musulmon ruhoniylari, madrasa mudarrisleri va toliblari, ma'rifatparvar vakillari ham bo'lib, ozodlik g'oyalari borgan sari kuch-quvvatga to'lib bordi. Bu g'oyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etdi. Natijada, ular "Yosh xivaliklar" tashkiloti nomi ostida o'zlarining islohatchilik kurashlarini olib bordilar.

XX asr boshlarida Xiva xonligidagi jadidchilik harakati Xorazmdagi maktab va madrasalarni, hatto islom diniga keyin kirib kelgan bid'atlarni va urf-odatlarining ayrim qismlarini isloh qilish, dunyoviy fanlarni joriy etish, savodxonlik usullarini osonlashtirish, o'quvchilarni o'z ona tilida ko'proq o'qitish va «g'ayri til»ni bilish kabi ma'rifatparvarlik goyalari bilan chiqqan demokratiya va adolat, istiqlol va taraqqiyot uchun kurashuvchilar harakati hisoblanadi. Ular safida Bosh vazir Islomxo'ja, qozikalon Boboxxun Salimov, shoir Avaz O'tar, devonbegi Husayn Matmurodov, savdogar Polvonniyoz hoji (Polyozhoji) YUsupov, sanoatchi boy Nazir SHoliqorov, matbaachi-hunarmand Otajon Abdalov, birinchi o'zbek kino-foto ustasi Xudoybergan Devonov, mirzaboshi Muhammad Rasul Mirzo, xonanda-musiqashunos Matyoqub Pozachi, Otajon Safaev, ziyolilar va ulamolardan Bobojon YOqubov, Hakimboy Jonmuhammedov, Muhammadyor hoji

Abdullaev, Otajon Xo‘janiyozov, Rahmonbergan YOqubov, Muhiddin Umarov, Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov, Jumaniyoz hoji Boboniyozov, Qurbonboy Jaloyir, Xudoybergan Magniyozov, Davlatnazar Qayroq, Murod Eltuzarov, Mulla Matmurod, Mulla Abdulla Berdimurodov, Avazxo‘ja, Isomiddin eshon, Nizomoxun, Sobir YOqubov, Mulla Bekchon Rahmon o‘g‘li, Muhammad YUsuf Devonzoda va boshqalar kirgan. Ularning safi 40 nafardan ziyod kishini tashkil etardi. Har payshanba kechasi goh Qalandarxonada, goh Qorako‘z masjidida, ko‘pincha Husaynbek Matmurod devonbegi o‘g‘lining uyida yig‘ilishlar o‘tkazilib, qo‘shiqlar aygishgan, she‘rxonlik qilishgan, erk, adolat, madaniyat va islohotga doir suhbatlar olib borilgan¹.

Ular jadid adabiyoti va san‘atini yaratish bilan cheklanib qolmay, madaniyat va maorif muassasalari tashkil etish, ya’ni yangi usul maktablari, kasalxona, pochta-telegraf ochish, o‘quv qo‘llanmalari yozish va nashr etish ishlari bilan shug‘ullanganlar.

1917 yilga kelib siyosiy jarayonlarning kuchayishi, Peterburgdagi imperatorning taxtdan qulatilishi, vaqtli hukumat bergan erkinliklar, qolaversa Birinchi jahon urushi bo‘lib turgan vaziyatdagi boshboshdoqlik tufayli, mustamlaka xonlik Xivada ham muxolifat siyosiy kuch sifatida namoyon bo‘la boshladi.

Tarixchi olimlar akad. Baxtiyor Nazarov hamda O. Qo‘shjonov, N. Polvonovlarning ta’kidlashicha, Xiva jadidlarini o‘ng va so‘llarga ajratib ko‘rsatish noto‘g‘ri. B. Nazarov jadidchilik harakati tarixining tarixshunosligi haqida to‘xtalib: «... 60-80 yillarda birmuncha siljishdek ko‘ringan jadidlarni o‘ng va so‘llarga ajratib baholash esa, aslida, mohiyat e’tibori bilan jadidchilikning sho‘ro tuzumini yoqlash va uni mustahkamlash yo‘liga o‘tgan

¹ Йўлдошев Ж. Ҳасанов С. Ўша асар, 80-бет.

vakillarini oqlash ustomonlikdan boshqa narsa emas edi»¹, - deb fikr bildirgan.

Bu boradagi fikrni Qo'shjonov, N. Polvonovlar ham ma'qullab, Xiva jadidlarini o'ng va so'l oqimlarga bo'lish mumkin emas, deb qayd qiladilar. Ularning aytishicha, mavjud adabiyot va tadqiqotlarda Xiva jadidlari o'ng oqimiga vazir Islomxo'ja boshliq savdo-sanoat korxonalari egalari va katta boylar turganligi qayd qilinib, so'l oqim namoyandalariga Boboovxon Salimov, Husaynbek Matmurodov, Polvonniyoz hoji YUsupovlarni kiritadilar. Lekin ular ham amaldor, katta er egasi, savdogar va zavodchi boylardan edilar. Jo'ra Toshqulov Xiva jadidlarini, shu bilan birga, maqsad va kurash usullariga qarab ham o'ng va so'l oqimga ajratadi. So'l qanot vakillari mavjud siyosiy-huquqiy tartibotlar bilan murosa qilishni istamay, hatto fitna usulidan foydalanishga intilishlari borligini qayd qilib, 1917 yil aprelda chaqirilgan Majlisning tarqatilishi va bir qancha Yosh xivaliklarning qamoqqa olinishi uchun bahona bo'lgan voqeani keltiradilar. Bunda asosiy aybdor sifatida Husaynbek Matmurodov va yana bir necha Yosh xivaliklar qamalgan edilar. «Husaynbek boshliq bir necha birodarlarimizni hibsga oldirdilar»², deb yozadi P.H.Yusupov. Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki – deydi tadqiqotchilar, Xiva jadidlarini o'ng va so'lga ajratmaslik maqsadga muvofiqdir. Ularning barchasi ham islohot, yangilik, taraqqiyot tarafdorlari edilar.

P.Yusupov o'z xotiralarida bu borada shunday deydi: “Bir kuni saroy oldidagi bir do'konda bir necha hurriyatchi yosh xivaliklar o'lturib erdik, mazkur no'g'ay ikki birodarimiz kelib o'lturdilar. Birodar Shokir Tenisov so'z boshladi. - Hojibobo, ertang askarlar toza muvaqqat hukumatga qasam qilurlar. Shul vaqt ko'p yaxshi vaqt turur.Sizlar ham tayyor bo'lib,

¹ О.Қўшжонов., Н. Полвонов.Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007. – В.274.

² Юсупов П.Х. Ёш хиваликлар тарихи. - Урганч: Хоразм, 2000. - 162-бет.

askarlarning yoniga borib, iltimos qilib so‘rasangizlar, xonni tushirib hurriyat bermakka, sizlarga yordam bersalar erkan,-dedi. Shul vaqtda hammalarimiz xursand bo‘lib, bayroq hozirlamoq uchun qizil tovardin bir necha arshin kelturib, Shokir afandiga berib aytdik: - Ertang, ertaga hozir qilursiz,yozuvi ham ruscha, ham musulmoncha bo‘lsin. - deb. Birodarlar qabul qilib xo‘shlashib ketdilar. Bizlar qolduk. Ertang erta birlan Shokir afandilar bayroqni hozir qilib, Qo‘shadarvozaning oldidagi Xudoybergan Devonovning magaziniga olib kelib, bizlarga xabar qildilar. Bizlar kelib bayroqni ko‘rdik, ko‘p yaxshi yozg‘on erkan: “Yoshosin hurriyat, yoshosin ozodlik, yoshosin qahramon askarlar!” deb ham ruscha, ham musulmoncha yozg‘on. Ko‘p shod bo‘lib, bayroqni Husinmuhammad devonbegining uyiga olib kelib , qa‘laga xabarchilar yubordik. Tamomi boy, mullo, dehqon, kambag‘al, mehnatkash har kim bo‘lsa-bo‘lsin darhol devonbegining joyiga kelsinlar”, deb sozini davom etadi.

Umuman, jadidlarning faol kuchlari orasida Husaynbek Matmurodov, Nazir Sholiqarov, Bobooxun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov ham bor edi. Ana shu siyosiy kuch 1917 yil 5 aprelida Xorazm tarixida ilk bor xalqni namoyishga chorlab, Asfandiyorxon saroyida uni manifest imzolashga, ***idorai marshrutiya –parlamentar kengash*** tuzishga majbur qiladi.

Manifestga ko‘ra, Xivada xon boshchiligadagi konstitutsion monarxiya o‘rnatilishi, uning hokimiyati majlisda saylangan ruhoniylar va savdogarlar vakillaridan iborat 30-50 kishi va nozirlar kengashi tomonidan cheklanishi lozim edi. Xon manifestda ko‘rsatilgan ko‘pchilik masalarnda yon bergan bo‘lsada, bular vaqtinchalik bo‘lib, junbushga kelgan xalqni tinchlashtirish

uchun ataylab qilinganligini voqealarning keyingi jarayonlaridayoqqol ko'rsatish mumkin¹.

Yosh xivaliklar tomonidan tayyorlangan va Asfandiyorxonga imzolagan 7 moddadan iborat manifestning birinchi moddasida, jumladan quyidagilar yozilgan edi: "... tarix hijriy ming uch yuz o'ttiz beshinchi jumadilavvalning yigirma beshinchi kuni erdikim, milodiy yilning bir ming to'qqiz bz o'n ettinchi yil aprel oyining beshinchi kunida men Xiva xoni Sayyid Asfandiyor Bahodirxon tubunda yozilgan o'zimni hoxishimni e'lon qilaman. Avvalo mening sodiq fuqorolarimga "Idorai Marshrutiya" berdim, toki ular o'zlarini hoxlaganicha mamlakatni shariyatga muvofiq, hamzamon taqozasiga muvofiq idora qilsinlar. CHunonchi, o'zlari hoxlagancha fuqarolarning maslahati bilan saylov qilib, hukumat ishlariga o'zlari hoxlagan odil odamlarni tayin qilsinlar"².

Mazkur manifest asosida mamlakatni boshqaruvchi "Idorai Marshrutiya" tuzildi. Unig rahbarlari etib Yosh xivaliklarning yo'lboshchilari Polvonniyoz Xojiyusupov, Xusaynbek Muhammadmurodovlar saylandilar. 1917 yil 6 apreldan o'z faoliyatini boshlagan "Idorai marshrutiya" shu kuni Xiva shahrining maydonida shahar fuqarolarining ko'p ming kishilik mitingini tashkil etdi. Ush bu mitingda Xiva xoni tomonidan tan olingan manifest xalqqa o'qib eshittirildi. Unda Xivada xonlik tuzumi ag'darib tashlanganligi va uning o'rniga Xiva xoni boshchiligida konstitutsiyaviy tuzumi qaror topganligi xalqqa maxlum qilindi. Saylov yo'li bilan deputatlar majlisi va Nozirlar kengashi tashkil topdi. 8 aprelda bo'lgan Majlisning birinchi yig'ilishida deputatlar majlisiningraisligiga Bobooxun Salimov, Nozirlar

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.115.

² Jo'rayev N.Karimov SH. O'zbekiston tarixi. – Toshkent, Sharq, 2011.- B.163.

(vazirlar) kengashi raisligiga esa Husaynbek Matmurodov saylandilar¹. Ana shundan so'ng majlis va hukumat butunlay Yosh xivaliklar qo'liga o'tdi.

Asfandiyorxon, uning atrofidagi reaksiya amaldorlar progressiv o'zgarishlar, ayniqsa, xon hokimiyatining cheklanishini istamadilar. Yosh xivaliklar hamda Maj-lisga qarshi doiralari o'z kuchlarini to'play boshladilar va qarshi harakatga kirishdilar. 1917-yil may oyi boshida Boboovxon Salimov boshchiligidagi Majlis delegatsiyasi Turkiston Komiteti bilan aloqa o'rnatish uchun Toshkentga jo'naydi. Shu paytda Asfandiyorxon Yosh xivaliklarga qarshi fitna uyushtiradi.

1917 yil iyun oyining birinchi yarmida Muvaqqat hukumatning Xivadagi vakili Mirbadalovning yordami bilan qo'llab-quvvatlashiga tayangan Asfandiyorxon Matmurodov boshliq Yosh xivaliklar rahbarlarini hibsga oldi va Yosh xivaliklar partiyasining barcha a'zolarini dindan qaytgan, deb e'lon qilib, ularga qarshi qatag'on boshladi². Xonning Yosh xivaliklar ustidan g'alabasini mustahkamlash, xonlikda mavjud bo'lgan tuzumga qarshi yangi chiqishlarga barham berish uchun Muvaqqat hukumat 25 iyulda Xivada komissar lavozimini ta'sis qildi. Bu komissarga Xiva xonligini boshqarishni tashkil etish qoidalarini ishlab chiqish vazifasi toshirilgan edi. Ayni vaqtda Muvaqqat hukumat tomonidan xonlikka chorizm qo'shinlarining yangi qismlari, asosan kazak qo'shinlari yuborildi.

O'sha yilning kuzida tashkil etilgan kengash Asfandiyorxon va uning muttassib amaldorlari tomonidan tarqatib yuborilgach, yuqoridagi shaxslar

¹ Jo'rayev N.Karimov SH. O'zbekiston tarixi. – Toshkent, Sharq, 2011.- 720 b.

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. - В. 115.

(Husaynbekdan tashqari) turli shaharlarga boshpana izlab, siyosiy qochoq sifatida ketishga majbur bo‘ladi¹.

Yosh xivaliklar hukumati faoliyatining dastlabki bosqichi (1917-yil 26-apreldan iyun o'rtalarigacha) shu bilan yakunlandi. Asfandiyorxon o'z mavqeini mus-talikamladi, demokratik o'zgarishlar jarayoniga to'siqlarqo'yildi, xon manifestida aytilgan islohotlar bekor qi-lindi. Majlis keyinchalik xonga yon bosib, faoliyati bo'shashliib ketishiga qaramasdan 1917-yil noyabr oyi oxirlarida xon Majlisni tarqatib yubordi.

Yosh xivaliklarning Polvonniyoz hoji YUsupov, Nazir SHoliqorov, Otajon Sapaev, Muhiddin Umarov kabi a'zolari turli yo'llar bilan Toshkentga qochganlar. Ular hibsga olingan Husayn Matmurodov va boshqalarni ozod qilishga yordam so'rab, 1917 yil 30 dekabrda Turkiston o'lkasi XKSGa murojaat qiladilar va o'zlarini Yosh xivalik sotsial inqilobchilar, deb ataydilar. Xuddi shunday nom ostida keyinchalik Turkiston Sovet Respublikasi MIQ ga Xivadagi ahvol to'g'risida doklad topshiradilar.

Polvonniyoz hoji YUsupov xotiralarida yozilishicha, 1918 yil 10 yanvarda Qo'qon shahriga borib, u erdagi Turkiston muxtoriyati hukumatidan ham yordam so'rashgan. Lekin harbiy yordam berish imkoniyati bo'lmagan bu hukumatlar ham Xiva xoni Asfandiyorxon va rus askarlari komissari Zaysevga zindonda yotgan Yosh xivaliklarni ozod qilib, To'rtko'lga o'tkazib yuborish to'g'risida telegramma jo'natish bilan cheklanadilar².

Yosh xivaliklar siyosiy partiya sifatida rasmiy faoliyat olib borishi to'g'risida gapiriladigan bo'lsa, tadqiqotchilar bu borada Polvonniyoz hoji YUsupov «Yosh xivaliklar tarixi» nomli xotiralaridan shunday ma'lumotlarni keltiradilar: «Bir kuni (1918 yilning mart oylari - P.N.) YUusuf afandi (YUusuf Ibragimov - favqulodda komissar) maslahat berdi: «Sizlar Yosh

¹ P. Xojiyusupov. “Yosh xivaliklar harakati: quvonchlar iztiroblar, fojealar” // Nashrga tayyorlovchi Umid Bekmuhammad // ziyo.com.uz.

² Юсупов П.Х. О'ш asar, - 162-бет.

xivaliklarning inqilobiy qo‘mitasini tuzing», deb. Man aytdim: «Bizlar 3-4 odammiz, nechuk qo‘mita ocharmiz?», YUsuf afandi aytdi: «Hech zarari yo‘q, 3-4 odam bas turur. Borib-borib a‘zolaringiz ko‘p bo‘lib ketar», deb bizlar uchun qo‘mita ochmoqqa buyruq qildi. Mani rais sayladi. Otajon mahram Sapaevni sarkotib, Bobojonboyni muovin, Muhiddin Umarovni xazinachi saylab, qo‘mita uchun muhrlar, daftarlar tayyor qilmoqqa buyurdi»¹.

Fikrimizcha, ana shundan keyin Yosh xivaliklar partiyasi rasmiy faoliyat olib bora boshlagan. O‘sha vaqtdan Yosh xivaliklar inqilobiy qo‘mitasi tashkil topib, «Istagan odamlarini a‘zolikka qabul qilib» qayd qila boshlaganlar. Hakim Bobojon Muhammad o‘g‘li, Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov, YUsufjon Ahmadjonov, Ismoilboy Solihoji o‘g‘li va boshqalarning Xivadan qochib kelishlari bilan Yosh xivaliklarning a‘zolari Toshkentda ham ko‘paya borgan.

Ana shunday voqealar silsilasida Polvonniyozhoji va uning safdoshlari fikrlari yanada qa‘tiylashdi. “Yosh xivaliklar” partiyasi 1918 yil 5 iyunda o‘z dasturi, tuzilish, muhriga ega bo‘lgan rasmiy tashkilot sifatida to‘la shakllandi. Ular dunyoqarashining shakllanishi va tadrijiy rivojlanishida xonlikdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, Turkiya, Eron, Rossiya va Turkistondagi siyosiy o‘zgarishlar, 1917 yil noyabr, 1918 yil yanvaridagi Qo‘qon voqealari, o‘lkada kechgan siyosiy o‘zgarishlar ob‘ektiv sharoit sifatida katta ta‘sir ko‘rsatdi. SHu bilan birga rus inqilobchilari, soldat sho‘rolari, Turkistondagi mahalliy inqilobchilar ta‘siri sub‘ektiv omil sifatida katta rol o‘ynadi.

Bu haqda P. Xojiyusupov quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi: “YApun mahorabasidan so‘ng gazetalar har turlik tarakkiylarga doir maqolalar yoza boshladilar. Man alardin har turli gazeta, jurnallar olib o‘qiy boshladim.

¹ О.Қўшжонов., Н. Полвонов.Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007. – 291.

Ondin so‘ng har kunda ijtihodim (kuchim, jahdim - Muh.) ziyoda bo‘lib, hurriyat uchun talasha boshladim. Ba’zi hurriyatparvar birodarlar ham qo‘shilib, hurriyatga doir muzokaralar qila boshladik”¹.

1917 yil oktyabrda Petrogradga ro‘y bergan davlat to‘ntarishidan so‘ng “Yosh xivaliklar” o‘z Ustav va dasturini qayta ko‘rib chiqdilar. Dasturda quyidagi vazifalar belgilab olingan edi.

1. Xon hokimiyatini tugatish;
2. Xiva viloyatini Turkiston bilan birlashtirish va uni sobiq Rossiya Federativ sotsialistik Respublikasi tarkibiga qo‘shish;
3. Xiva xonlari, shahzodalari, beklari va nozirlari qo‘lida bo‘lgan barcha qimmatbaho narsalarni ular nimalardan iborat bo‘lishidan qat’iy nazar xalq mulki deb e’lon qilish;
4. yirik zamindorlar qo‘lidagi erlarni dehqonlarga bo‘lib berish;
5. barcha vaqf erlaridan tushadigan mablag‘ni maorif ishlarini rivojlantirishga sarflash;
6. asta-sekin Xiva shahrida bolalar bepul o‘qiydigan maktablar ochish;
7. Xiva shahrida va boshqa aholi istiqomat qiladigan joylarda kasalxonalar ochish va bepul tabobat yordami ko‘rsatish;
8. aholining qashshoq qismiga xondan olingan erlarni ularga qayta berish;
9. yo‘l va ko‘priklarni obodonlashtirish;
10. majburiy ishlarni barchasini bekor qilish;
11. xon hokimiyatini ag‘darish, yuqoridagi tadbirlarni amalga oshiradigan xalq hokimiyatini o‘rnatish. Sovet hukumati dushmanlari bilan esa shafqatsiz kurash olib borish,² kabilardan iborat bo‘ldi.

¹ Юсупов П.Х. Ёш хиваликлар тарихи, - 77-бет.

² Абдурасулов А. Хива. – Тошкент.: Ўзбекистон, 1997. –Б..123.

Rossiyaning chekka o'lkalaridagi xalq ommasining siyosiy faolligidan quti o'chgan Rossiya muvaqqat hukumati ham xonlikdagi tartib-qoidalarini qo'llab-quvvatladi. U o'zi e'lon qilgan erkinliklardan voz kechib, xonlikni isloh qilish zarurligi haqidagi va'dalariga xilof ravishda podsho Rossiyasining eski siyosatiga qaytdi va xonlikdagi monarxiya tartibini qo'llab-quvvatladi.

Polvonniyoz Hoji Y'Usupov bu haqda quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tgan: "Maxfiy qolmasinkim, xonning hiylasi shul bo'lg'onki, ushbu ko'na xondin qolg'on sipohiylarni bir-birlari bilan dushman qilmoq ham shuning orqasinda ularni yo'q qilmoq. Nechunkim, ularning xalqlar huzurinda e'tibori ko'pturur. Agar ular ittifoq bo'lib tursalar xon o'z ixtiyori birlan hech ish qila bilmas. SHuning birlan arizada bayon qilg'on sipohiylarni naqib Ibrohimxo'jadin boshqasini uyiga navkarlarni mo'rolab yuborib, o'zlarini hibsga olib, tamomi molu mulkini hukumatga musodara qilmoqqa hukm qilib, darhol ijro qilmoqqa buyurg'on. Darhol bir necha otliq navkarlar bilan pirmamur devonbegi Husinbekning (Matmurodovning - U.B.) uyiga borib, tamomi bola-chaqalarini uyidin chiqarib, uylarini pechatlab, o'zlarini hibsga olgan. SHixnazarboyni ham, Sardorboyni ham, Soyibnazar mehtarni ham ushbu bayon bo'lg'on odamlarga darak odamlarni ham uylarini musodara qilib, pechatlab, o'zlarini hibsga oldilar. SHu jumladin, faqirni ham uyini pechatlab, bola-chaqalarini chiqarib, manga kishi yuborganlar. Faqir saroyida Otajon mahram Safoev bilan gazeta o'qib o'lturib erdik. Xabar berdilar, "uylaringizni xonning navkarlari kelib pechatlab, bola-chaqalaringizni chiqarib yubordi", deb. Bizlar hayron bo'ldik, nima voqea bo'lg'on erkan, deb uylarimizga kettik¹.

Polvonniyoz hoji Y'Usupov yozishicha, partiya dasturi SHokir Sidsiqov raisligi va David Bakirov kotibligida o'tkazilgan majlisda qabul qilingan. Yosh xivaliklar inqilobiy qo'mitasi kotibi Otajon mahram Sapaev dasturning

¹ P. Xojiyusupov. "Yosh xivaliklar harakati: quvonchlar iztiroblar, fojealar" // Nashrga tayyorlovchi Umid Bekmuhammad // ziyo.com.uz.

Xivani Turkiston respublikasining bir qismiga aylantirishdan iborat bo'lgan 2-modsasiga qarshi chiqib: «...ushbu hurriyatdan tamomi mahkum xalqlar istifoda qilib, o'z istiqlolini olgan vaqqlarida, biz Yosh xivaliklar o'zimizda bo'lgan mustaqilligimizni yo'q qilsak vatanga, millatga xiyonat qilgan bo'lurmiz, tarixda yomon otli bo'lurmiz», - deydi. Lekin ko'pchilik bu moddani olib tashlasak sho'rolar hukumati bizga yordam bermas, degan andisha bilan uning qoldirilishiga ovoz berishgan¹.

Ushbu dasturning aniqlashtirilgan va RSFSRga qo'shilish to'g'risidagi moddasi olib tashlanib, 12 moddadan iborat varianti «Xiva inqilobchilar partiyasining yaqin vazifalari» nomi bilan 1920 yil 8 yanvarda Toshkentdagi «Izvestiya» gazetasida bosib chiqarilgan.

1917 yil avgust boshlarida Yosh xivaliklar inqilobiy qo'mitasining a'zolarini joylarda inqilobiy uyushmalar tuzish uchun jo'natiladi. Buni Toshkentdagi Yosh xivaliklar inqilobiy qo'mitasi a'zosi Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov nomiga 1918 yil 4 avgustda berilgan 12-sonli mandat nusxasi ham tasdiqlaydi. Bu hujjat Yosh xivaliklar inqilobiy qo'mitasining shtampi va muhri nusxasining yaxshi saqlanganligi bilan ham qimmatlidir. YUmaloq shakldagi muhrga aylana tarzda «Mlado-xivinskiy Revolyusionny Komitet» deb doira ichiga arab harfida “Yosh xivaliklar inqilobiy qo'mitasi” va kirillchada “Tashkent” so'zlari yozilgan². Demak, 1918 yil 5 iyunda Yosh xivaliklar inqilobiy partiyasi o'z dasturi, tuzilishi, muhriga ega bo'lgan rasmiy tashkilot sifatida to'la shakllangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yosh xivaliklar harakati 1904-1905 yillarda hamfikrlar, 1910 yil boshlarida manfaatlar guruhi sifatida shakllangan bo'lsa, 1917 yilda amaldorlar, ma'rifatli boylar, milliy burjuaziya va ziyolilarning Xiva xoniga muxolifatdagi siyosiy kuch, 1918 yilda esa

¹ Юсупов П.Х. Ўша асар, 169-170-бетлар.

² О.Қўшжонов., Н. Полвонов.Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007. – В.294.

rasmiy siyosiy partiya sifatida namoyon bo'lgan. Bular dunyoqarashining shakllanishi va tadrijiy rivojlanishida xonlikdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, Turkiya, Eron, Rossiya va Turkistondagi siyosiy o'zgarishlar ob'ektiv sharoit sifatida katta ta'sir qilgan hamda rus inqilobchilari, soldat sho'rolari va Turkistondagi maxalliy inqilobchilar ta'siri sub'ektiv omil sifatida katta rol o'ynagan.

Yosh xivaliklar partiyasi va ularga ergashgan milliy burjuaziya, o'rta tabaqa vakillari, ziyolilar, diniy ulamolar- ning bir qismi har qanday kuchga, aynan shu vaziyatda Turkiston sovet hukumati va uning qizil armiya qo'shinlariga tayangan holda Junaidxon hukmronligiga barham berish, mamlakatda tubdan demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edilar.

Demak, jadidchilik harakatidan o'sib chiqqan Yosh xivaliklar partiyasi 1918 yil iyun oyida Xorazm aholisi manfaatlarini himoya qiluvchi, o'z dasturi va tashkiliy tuzilishiga ega bo'lgan rasmiy siyosiy partiya sifatida to'la shakllandi. Biroq aynan o'sha yillar Yosh xivaliklar partiyasi a'zolari bolsheviklarga g'oyaviy jihatdan yaqinlashdilar va ularning ta'siriga tushib qoldilar.

2-BOB. XIVA XONLIGINING TUGATILISHI. XXSR VA YOSH XIVALIKLAR

2.1. Xonlikning tugutilishi. XXSR ning ijtimoiy-siyosiy hayotida Yosh xivaliklarning faoliyati.

Keyingi jarayonlarda Xiva xoni Asfandiyorxon Rossiya Muvaqqat hukumati, uning Turkistondagi vakillari bilan aloqa o'rnatishga intildi. Boshqaruvni yo'lga qo'yish uchun polkovnik Zaytsev Muvaqqat hukumatning Xorazmdagi harbiy komissari etib tayinlandi.

1918 yil yanvar oyida Zaysev boshchiligidagi rus qo'shinlari Xiva xonligi hududidan chiqib ketdi. Asfandiyorxon o'zining harbiy tayanchidan mahrum bo'ldi. Ahvol murakkablashdi. Asfandiyorxon o'z hokimiyatning mamlakatda keskin tus olgan siyosiy vaziyatga qarshi kurash olib borishi uchun zaifligini his qilib, 1918 yil 22 yanvarda Junaidxonga xonlikni birgalikdaboshqarish va bolsheviklarga qarshi kurash olib borishni taklif etdi. Junaidxon 1917 yil sentyabrda Erondan Xivaga qaytdi¹.

Asfandiyorxon poytaxtga etib kelgan Junaidxonni qo'shinlar qo'mondoni (sardori karim) qilib tayinladi va mamlakatdag butun hokimiyatni to'laligicha unga topshirdi. Biroq Asfandiyorxon taxt tepasida ko'p o'tirmadi. Oradan ko'p o'tmay, u o'zining bir necha yaqish kishilari bilan birga Junaidxonning ko'rsatmasiga muvofiq o'ldirildi. Junaidxon taxtni egallamadi, an'anaga muvofiq, taxtga (marhum xonning akasi) Said Abdulloxonni o'tqazdi, o'zi esa haqiqatda mamlakatning hukmdori bo'lib qolaverdi.

Ma'lumki, oktabr to'ntarishi oqibatida tuzilgan sovet hokimiyati Sharq xalqlari, jumladan, Buxoro va Xorazm hududlari daxlsiz, podsho hokimiyati

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.115.

tuzgan mustamlakachilik bitimlari bekor qilindi, deb e'lon qilgan edi. Chorizm Amudaryoning o'ng qirg'og'i (To'rtko'l)ni Xorazmdan tortib olib, Turkiston general-gubernatorligiga qo'shgan edi. Xiva xoni To'rtko'l va uning atrofidagi yerlarni qaytarib berishni Turkiston bolshevistik rahbariyatidan talab qildi. Sunday talabni qo'yishgayana sabab shu ediki, To'rtko'l inqilobiy kuchlari Amudaryo so'l qirg'og'i yerlariga tahdidni kuchaytirib yubordilar. Xonga qarshi siyosiy muxoliflarni inqilobiy fitnachilik, zo'ravonlik ishlari doirasiga torta boshladilar. Ham Xiva xoni, ham TSR hukumati To'rtko'l (undag iharbiy istehkom, kemalar to'xtasli joyi — pristan)ning muhim siyosiy-strategik ahamiyatini tushunar edilar va yon berishni istamadilar.

To'rtko'ldagi harbiy garnizon, shuningdek, sovetlardagi siyosiy unsurlar ichida kelishmovchiliklar va zid-diyatlar tobora kuchayib bordi. Xiva aholisi ham rusarmiyasining mamlakatda turishiga norozilik bildirdi. Shu sababli Zaytsev ikkita piyodalar otryadini To'rtko'lga ko'chirdi.

1918—1919-yillarda Xorazmning iqtisodiy ahvoli og'irlaslib, xalq ommasining moddiy qiyinchiliklari ortib bordi. Matbuotda ocharchilikning kuchaygani haqida xabar qilinadi. 1918-yil 25-noyabrda Junaidxon qo'shinlari Amudaryodan o'tib, To'rtko'lni olmoqchi bo'ldi va uni qamal qildi. Ammo Chorjo'ydan «Toshkent» paroxodida harbiy kuch yordamga yetib keldi va hujum natijasiz chiqdi.

1919-aprelda Xiva yaqinidagi Taxtada bitim imzolandi. Unda, chunonchi, sovet hukumati Xorazm aholisining mustaqilligini tan oladi, deyilgan edi. Ammo Xorazmga qarshi tajovuzkorliklar to'xtamadi. Taxta shartnomasidan so'ng, Sovet hukumati Xiva xonligida o'zining to'la huquqli vakolatxonasini ochdi. Sovet hukumatining Xiva xonligi ishlari bo'yicha dastlabki vakolatli vakili Xristoforov edi. Uning vafotidan keyin Turkiston ASSRning

Xivadagi to'la huquqli vakili qilib Soldatov tayinlandi¹.

Turkkomissiyaning 1919 yil 20 noyabrdagi maxsus qarori bilan G.B.Skalov RSFSRning Xivadagi to'la huquqli vakili qilib tayinlangan. Aynan ushbu vakillar Xiva xonligining ag'darilishi va Xorazmda yangi hukumat tuzilishida katta rol o'ynaganlar. G.B.Skalov, G.I. Broydo, A.Izmailov, R.SHokirov, Bashmakov, Safonov, Bik, Ioffe kabi RSFSR va Turkkomissiyaning Xivadagi muxtor vakillari Xorazmdagi bolshevistik o'zgarishlarni to'la boshqarib turdilar.

Jumladan, G.B. Skalov buyrug'i bilan sovet qo'shinlari 1919 yil 25 dekabrda mustaqil Xiva xonligiga bostirib kirdilar. Bular bilan Yosh xivaliklar partiyasi inqilobiy qo'shinining bo'lganligi hamda Xiva ishchilari harakatini tashkil qilish bo'yicha o'lka byurosining vakolatli vakili Xasanovning 1919 yil 4 noyabrdagi xabari², bolsheviklar uchun Xiva xonligini bosib olishdek asosiy maqsadlarini xaspo'shlash, Xorazm mehnatkashlari talabi bilan ularga yordam berish, ularni zulm va zo'rlikdan ozod qilish uchun Xorazm hududiga kirdik, deb aytishlariga asos bo'ldi. Holbuki, bolsheviklar o'z ittifoqchilariga yordam berish, ularni etarli o'q-dori narida tursin, hatto oziq-ovqat bilan ham to'liq ta'minlamaganlar. Turkman qabila va urug' boshliqlari Qo'shmamedxon, Nurgaldixon Muxammad Ayon, mulla Berkel, G'ulom Alixon va boshqalar Skalov va SHerbekov otryadlari tomonga o'tib, Junaidxonga qarshi kurashganlarida hatto ularga o'zlari bosib olgan hududlarida talonchilik qilishiga ham ma'lum ma'noda ruxsat berilgan.

Sovet qo'shinlari Junaidxon qo'shilmalari qarshiligini engib, qo'zg'olonchilar otryadlari bilan birgalikda Qo'xna Urganch, Eminqal'a, Porsu, Ilyali, Toshhovuzni qo'lga kiritdi. Qizil armiya qismlari va qo'zg'olonchilar otryadlari 1920 yil yanvarning ikinchi yarmida Junaidxon qo'shinlariga

¹ O.Қўшжонов., Н. Полвонов.Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007. -Б.313.

² O'sha asar, - B. 313.

G‘azovot tumanida jiddiy zarba berib, oytaxtga yaqinlashib keldilar va 1 fevralda shaharga jangsiz kirdilar¹.

Junaidxon qo‘shinlarini mag‘lubiyatga uchratgan inqilobiy qo‘shinlar 1920 yil 1 fevralda Xiva shahriga kirishdi. Bu paytda Said Abdullaxon va uning amaldorlari biron qarshilik ko‘rsatmadilar. Chunki G.B.Skalov boshliq qizil askarlar Yangi Urganchda Junaidxon qo‘shinlarini mag‘lubiyatga uchratgach, xon vakillari bizni sizlarga qarshi urushishga Junaidxon majbur kildi, deb xon nomidan sulh so‘raganlar, G.B.Skalov esa sizlar o‘z vatanlaringizda bo‘lib turing, deb ularni qaytarib yuborgan edi².

1919 yil 1 fevralida Said Abdullaxon qizil askarlar va Yosh xivaliklar talabi bilan taxtdan voz kechganligi to‘g‘risidagi manifestni imzoladi. 2 fevralda manifest xalqqa o‘qib eshittirildi va majlis chaqirilgunga kadar hokimiyat Muvaqqat inqilobiy hukumat qo‘liga o‘tganligi e‘lon qilindi.

Xorazmdagi yangi Muvaqqat hukumat tarkibi inqilob g‘alabalarini ta‘minlashda ishgirok qilgan kishilardan, shu bilan birga Xiva xoni tavsiyasi ham inobatga olinib, quyidagi tarkibda tuzildi:

1. Mulla Jumaniyoz Sulton Murodov - Yosh xivaliklar firqasi To‘rtko‘l ko‘mitasining raisi, zavod egasi bo‘lgan, Muvaqqat inqilobiy hukumat raisi.

2. Matpanoboy Madrahimov - shahar xalqi va savdogarlar nomidan a‘zo, Yosh xivaliklar partiyasi a‘zosi.

3. Odamoxun Ortiqov - ulamolar tomonidan a‘zo.

4. Mulla Uroz Xo‘jamammedov - Qo‘shmamedxon Sapiev (Turkman qabila sardori) tomonidan a‘zo.

5. Mulla Navro‘z Ro‘ziboev - G‘ulom Alixon Bahodir (Turkman qabila sardori) tomonidan a‘zolar³ shular jumlasidan edi.

Muvaqqat inqilobiy hukumat har haftada kamida ikkitadan majlis

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида.

2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.115.

² Юсупов П.Х. Ёл хиваликлар тарихи. - Урганч: Хоразм, 2000. - 196-бет.

³ Маткаримов М. Хоразм республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. - Урганч, 1993. –Б.14-бет.

chaqirib, eng muhim masalalarni ko‘rib, muhokama qilib bordi. Bu qo‘mita 2 oy davomida ham qonun chiqaruvchi, ham ijro qiluvchi hokimiyat vazifasini rasmiy ravishda bajardi. Aslida esa hukumat rahbarlari har bir qizil askar yugurdagiga aylanib, faqat qo‘shin ta‘minoti bilangina shug‘ullanganlar. Muvaqqat inqilobiy hukumat rahbarlari davlat ma‘muriy boshqaruv tizimini ishlab chiqa olmadilar. CHunki hukumat ma‘muriyatni saylash yoki tayin qilish masalasini hal etishda ikkilanib qoldi. Ayni paytda joylarda hokimiyatni boshqarishga layoqatli kadrlar ham yo‘q darajada edi. SHuning uchun ham xonlik davri ma‘murlari, beklari joylardagi hokimlik lavozimlariga tayinlandilar. Hukumat davlat hokimiyatini qayta qurish ishlarini sekin bajardi¹.

Bu vaqtda Polvonniyoz hoji YUsupov boshliq Yosh xivaliklar partiyasi Markaziy inqilobiy qo‘mitasi a‘zolari Toshkentda edi. Ular G.I. Broydo bilan 4 martda Toshkentdan chiqib, mart oyining oxirlarida Xivaga etib kelishgan. G.I. Broydo joylardagi voqealar bilan tanishib, Muvaqqat hukumat a‘zolari va xalq ichida katta ta‘sirga ega bo‘lgan boshqa etakchilar-Boboovun Salimov, Qo‘shmamedxon Sapiev kabilar bilan suhbatlashib, haqiqiy ahvolni o‘rgandi. SHundan keyin G.I.Broydo 7 aprelda Xivada Muvaqqat hukumag a‘zolarining kengaytirilgan majlisida qatnashib, nutq so‘zlaydi va nozirliklar tayinlashni maslahat beradi². CHunki xon hokimiyati ag‘darilgani bilan joylarda hech qanday o‘zgarish qilinmagan edi.

G.I.Broydo o‘z nutqida Xorazmdagi mavjud ahvolga baho berib, Muvaqqat inqilobiy hukumat hech ish qilmaganligini ta‘kidlab, sovg Rossiyasi xonlik tuzumini ag‘darishda qanday rol o‘ynagan bo‘lsa, yangi tuzumni o‘rnatishda ham shunday yordamini ayamastligini qayd qiladi hamda madaniyat va maorif, harbiy, xalq xo‘jaligi, moliya, oliy mufattish (nazorat),

¹ О.Қўшжонов., Н. Полвонов.Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. — Тошкент: ABU MATBUOT-KONSAIT. 2007. -Б.316.

² История Хорезмской Народной Советской Республики. - Т.: Фан, 1976.

adliya, xorijiy nozirliklarini tuzish, ularning vazifalarini tushuntirishga harakat qiladi. Hukumat azosi Odamoxunning: «Bu ishlar shariatga to‘g‘ri keladimi?» - deb bergan savoliga Qur‘on kitobidan misollar keltirib, shariatga mosligini isbotlaydi. Polvonniyoz hoji YUsupovning, bizga qonunlar tuzishda yordam berishingizni iltimos qilardik, degan so‘roviga, yordam bermasak, o‘z ishimizni oxiriga etkazmagan bo‘lardik, deb javob qaytaradi¹.

1920 yil 9 aprel kuni muvaqqat inqilobiy hukumat ishini yaxshilash maqsadida uning tarkibida nozirliklar tashkil qilindi. Ayrim hukumat rahbarlari nozir ham bo‘lgan edilar. Bunga sabab, siyosiy vaziyatni anglab, davlat tashkilotlarini boshqarish salohiyatiga ega bo‘lgan, savodli kadrlar juda kam edi.

Xiva shahri va mamlakatni aksilinqilobchilardan himoya qilish maqsadida adliya nozirligi qoshida militsiya boshqarmasi tashkil qilindi. Uning boshqaruvchisi qilib ham Yosh xivaliklar partiyasi a‘zosi bo‘lgan Nazir SHoliqorov tayinlandi². SHuningdek, 1920 yil 9 aprelda Xiva xonligida mavjud bo‘lgan 20 ta beklik va 2 ta noiblik o‘rniga 22 ta tuman sho‘rolari tashkil qilish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Beklik degan unvon va unga qarashli barcha lavozimlar bekor qilindi. Ularning o‘rniga 3-5 kishidan iborat bo‘lgan, muvaqqat hukumat tasdiqlagan sho‘rolar ta’sis etildi.

Xiva xonligidagi qurolli to‘ntarish, mustaqil mamlakat ichki ishlariga aralashuvi sovet Rossiyasining jaxon hamjamiyatida siyosiy mavqega ega bo‘lishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin edi. SHuning uchun Muvaqqat inqilobiy hukumat olib borgan ishlarda RSFSR, BMTKning muxtor vakillari va ularga bo‘ysungan Xivadagi qizil askarlar bu jarayonda yordamchi vazifasini o‘tadilar. Bu esa 1-Butunxorazm qurultoyiga vakillarni saylash jarayonining oshkora ruhda o‘tishiga sabab bo‘ldi. Mazkur jarayon 1-

¹ О.Қўшжонов., Н. Полвонов.Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007. -Б.317.

² О.Қўшжонов., Н. Полвонов.Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007. -Б.318.

Butunxorazm qurultoyi vakillarining barcha tabaqalardan saylanganligida ko‘zga tashlanadi.

Shunga ko‘ra, XXSRning birinchi hukumati tarkibi ham turli toifa, turli ijtimoiy harakat va siyosiy parziya vakillaridan iborat bo‘ldi. Yosh xivaliklar partiyasi a‘zolaridan:

1. Polvonniyoz hoji YUsupov (Nozirlar sho‘rosining raisi) - yirik savdogar, zavod egasi, katta obro‘ga ega, dindor;
2. Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov (Nozirlar sho‘rosi raisining birinchi muovini) - sanoatchi, zavod egasi, yaxshi ma‘muriyatchi, chaqqon, siyosiy ongli;
3. Muhammad Panoboy Abdullaev (moliya noziri) - savdogar, boy;
4. Nazir SHolikorov (dohiliya - ichki ishlar noziri) - sanoatchi, zavod egasi;
5. Boboovun Salimov (adliya noziri) - qozikalon, katga er egasi;
6. Mulla Bekjon Rahmonov (maorif noziri) - Turkiyada o‘qib kelgan jadid, ziyoli;
7. Eshchonqori Jabborkulov (xalq xo‘jaligi noziri) - ziyoli, savdogar;
8. Xudoybergan Devonov (oliy mufattish-davlat nazorati noziri) - jadid, savdogar;
9. Hakim Bobojonov (ziroat- qishloq xo‘jaligi noziri) - amaldor;
10. turkman sardorlaridan Qo‘shmamedxon Sapiev (Nozirlar sho‘rosi raisining ikkinchi muovini) - turkman urug‘ boshlig‘i, katta er egasi;
11. G‘ulom Alixon Baxodir (ijtimoiy ta‘minot noziri) - turkman urug‘ boshlig‘i, katta er egasi;
12. Mulla Uroz Xo‘jamuqammedov (xorijiya-tashqi ishlar noziri) - katta er egasi;
13. Mulla Navro‘z Ro‘ziboev (Nozirlar sho‘rosi kotibi) - katta er egasi;
14. SHomurod Baxshi (sog‘liqni saqlash noziri) - katta er egasi;
15. Rizoaddin SHokirov (harbiy nozir) - harbiy qism komandiri, keyinchalik

Turkkomissiyaning Xivadagi vakili¹ edi.

Yangi hukumatning milliy tarkibi ham millatlarning o'lkadagi siyosiy jarayondagi o'rnini bildiradi. 15 ta hukumat a'zosidan 9 tasi o'zbeklardan, 5 tasi turkmanlardan, bittasi esa tatar millatiga mansub edi. Oddiy xalq, mehnatkash aholi hamisha siyosatdan uzoqda bo'lgan. Ayniqsa, savodxonlik darajasi orqada qolgan mamlakatlarda xalqning savodsizlik darajasi kanchalik yuqori bo'lsa, uning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki ham shunchalik past bo'ladi. Xorazmda xonlik tuzumi ag'darilib, sovet tuzumi o'rnatilayotgan bir jarayonda mehnatkash aholi savodxonligining pastligi yangi hukumat tarkibining shakllanishida katta rol o'ynadi. Hukumat tarkibiga ishchi va dehqonlardan birorta ham vakil saylanmagan.

Xorazm respublikasi Konstitutsiyasi I Butun Xorazmxalq qurultoyida qabul qilingan bo'lsa ham, bu masala takror ko'rildi. II va III qurultoylarda Konstitutsiya to'la-to'kis qabul qilindi, ammo IV qurultoyda (1923-yil oktabr) yangi Konstitutsiyasi tasdiqlandi².

Yangi Konstitutsiya mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalaridagi o'zgarishlarni hisobga olib, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi o'zining yangi, sotsialistik rivojlanish davriga kirdi deb baholadi va davlat nomini shu kundan boshlab Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi deb belgiladi. Konstitutsiyaning asosiy g'oyasi barcha fuqarolarning tengligi, jamiki boyliklar, yer-suv xalqniki kabi tamoyillardan iborat bo'ldi.

Hokimiyat xalq vakillari qatnasligan boshqaruv organlari tizimi shaklida tarkib topdi. Oliy hokimiyat xalq vakillari Butun Xorazm qurultoyi edi, keyinchalik u sovetlar qurultoyi deb ataladigan bo'ldi. Ijroiya hokimiyati xalq

¹ О.Қўшжонов., Н. Полвонов.Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007. -Б.318.

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.221.

nozirlari soveti, shuningdek, mahalliy tuzilmalar - mahalliy sovetlar edi. Joylardagi bir qatormansabdorlar, jumladan, oqsoqollar aholi tbmonidansaylanadigan bo'ldi. Shahar beklari, mahalliy hokimlarlavozimlari bekor qilindi. Revkomlar va hukumat tayin-laydigan 3-5 kishidan iborat xalq vakillari sovetlari tashkil etildi. Qozikalon o'z o'rnida qoldi, shu bilanbirga oliy sud (qozilik kollegiyasi) joriy qilindi, joylarda qozilar o'rniga adliya malikamalari taslikil etildi. Qozilar belgilangan maosh olishga ko'chirildi, chakana daromadolish man qilindi. Maorif va madaniyat nozirligi tarkibi-da vaqf mulklari boshqarmasi tuzildi. Qoziliklar, yangi adliya malikamalari asosan shariat yuzasidan ish yurg'izardilar.



Ma'muriy jihatdan respublika 4 viloyat: Hazorasp, Urganch, Toshhovuz, Xo'jayli va 26 ta tumanga bo'lingan. 1922-yilda turkman, qozoq, qoraqalpoq ma'muriy viloyatlarini tuzish haqida qaror qabul qilingan.

Xorazm aholisi, uning turli qatlamlari va vakillari yangi sharoitlarda boshqaruv organlarini taslikil etishdava ularning faoliyatida qizg'in ishtirok etdilar. Jamiyatda barqarorlikni joriy qilish, iqtisodiy-xo'jalik hayotini yo'lga qo'yish uchun sa'y-harakatlar qilindi.

Hokimiyatni dastlab Yosh xivaliklar partiyasi boshqardi. Uning siyosiy yo'lini 1920-yil 8-aprelda qabul qilingan «Xiva inqilobiy partiyasi dasturi» hamda 30- aprelda qabul qilingan respublika Konstitutsiyasi belgiladi.

Yana bir siyosiy uyushma Xorazm kompartiyasi edi. U xon hokimiyati ag'darilgandan so'ng Turkiston bolsheviklari homiyligi ostida taslikil topdi, so'l-ekstremistik siyosatni o'tkazish vositasiga aylandi. Xorazm kompartiyasining I qurultoyi 1921-yil 10-11-dekabrda o'tib, uning a'zolari soni 1200 kishini tashkil qildi. RKP(b) tomonidan o'tkazilgan 1923-yilgi «chistka» da XKP a'zolarining 32 % i partiyadan o'chirildi.

1921-yil martida Yosh xivalik P.Yusupov boshliq hukumatning ag'darilishi oqibatida hukumat tarkibida kompartiya a'zolari soni ko'paydi. Ammo hokimiyatning boshqa qismlarida Yosh xivaliklar va ularning g'oyalari ta'siri kuchli edi. Bu hoi respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning mazmun va mohiyatini belgilab bordi.

Yosh xivaliklar partiyasi a'zolari ko'pchilikni tashkil qilgan dastlabki XXSR hukumati qabul qilgan qarorlari va amaliy ishlarida keng xalq ommasining manfaatlarini himoya qildi. Uning faoliyatiga RSFSR hukumati muxtor vakillari bevosita va sun'iy tarzda o'zlari tashkil qilgan Xiva ishtirokiyun firqasi - Xorazm Kommunistik partiyasi, kasaba it- tifoqlari hamda Xorazm inqilobiy Yoshlari ittifoqi a'zolari orqali bilvosita aralashib, doimo xalaqit berib turdi. Xiva xonini naxtdan ag'darishda Rossiya bolsheviklari va Yosh xivaliklar partiyasining siyosiy ittifoki yangi sharoitda o'z ahamiyatini yo'qotdi.

Hatto Yosh xivaliklar partiyasi tugatilib, uning ko'pchilik a'zolari Xorazm ishtirokiyun firqasi safiga 1920 yil may oyida o'tkazilgani, 1920 yil 22 noyabrda XKP birinchi kotibi A.Akchurin Xivadan ketgach, uning o'rniga Yosh xivaliklar partiyasi rahbarlaridan Jumaniyoz Sultonmurodov tayinlangani bilan vaziyat o'zgarmadi¹. RSFSRning muxtor vakillari turli yo'llar bilan XXSR hukumati ichki ishlariga aralashib, halaqit bera boshladilar. Ayniqsa, 1920 yil 19 oktyabrdan RSFSRning Xorazmga Turkkommissiya tomonidan tayinlangan muxtor vakili M.Safonov, 1921 yil may-iyun oylarida SH.Siddiqov, 1921 yil iyun-oktyabr oylarida Bik, 1920 yil oktyabrdan tayinlangan A.Ioffelar mustaqil XXSR hukumati ishlariga aralashib, siyosiy va iqtisodiy hokimiyatni o'z qo'llariga olishga harakat qilganlar².

Yosh xivaliklar partiyasi a'zolari RKP (b)ning Petro-Aleksandrovska qo'mitasi tarkibiga kiritilganligi bilan ular o'zlarining mustaqil siyosiy tashkilot holatini saqlab qoldilar. «Inqilobiy qo'mita qanday huquqlarga ega bo'lsa, shundayligicha saqlanib qoladi», deyilgandi o'sha qarorda³. Bu narsa Yosh xivaliklarning 1919 yil 24 iyuldagi umumiy majlisida ularning kommunistlar bilan hamkorligi mustahkamlanayotgan sharoitdagi vazifalari muhokamasida yana bir bor tasdiqlandi.

Bizningcha, Yosh xivaliklarning Rossiya kommunistik partiyasi mahalliy qo'mitasiga kiritilishi inqilob mafaatlarga zid emas edi. Chunki o'z maqsadlariga erishish uchun har ikki tomonga ham ittifoqchi kerak edi. Ularning ittifoqi esa mavjud muammoni hal etish hamda Xivadagi xonlik tuzumini ag'darib tashlashning eng to'g'ri shakli bo'lib chiqdi. Chunki, birinchidan, sovet hukumati o'z a'zolari RKP (b) Petro-Aleksandrovska

¹ Туркестан в начале XX века: К истории истоков национальной независимости. - С. 616-бет.

² Юсупов П.Х. Ёш хивалиklar тарихи. 338-470-бетлар

³ О.Қўшжонов., Н. Полвонов.Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007. -Б.327.

qo‘mitasi ro‘yxatiga kirgan Yosh xivaliklar orqali xivalik inqilobchilarga yordam berishning va xonlik ichki ishiga aralashishning siyosiy asosiga ega bo‘ldi. Ikkinchidan, bu qo‘mita a‘zolari orqali, xonlikdagi Junaidxonga qarshi boshqa guruhlar - turkman urug‘i yo‘lboshchilari, hatto Said Abdullaxon bilan ham muzokaraga kirish imkoniyatini yaratdi.

Qo‘mita saqlanib qolishini RKP (b) MK Turkiston o‘lka Musbyurosi (1919 yil may) ham qo‘llab-quvvatladi va 1919 yil 18 avgustda SHayxutdin Hasanov (rais), J.Sultonmurodov (a‘zo) va boshqalar, jami 5 kishidan iborat RKP (b) MK ning Xiva Musbyurosi tuzildi. 1919 yil 11 oktyabrda I.A.SHaydakov raisligida tuzilgan Amudaryo inqilobiy qo‘mitasiga SH.Hasanov o‘rinbosar qilib tayinlandi.

Inqilobiy ruhdagi Yosh xivaliklar partiyasi va kommunistlar rahbarligida Petro-Aleksandrovska xivalik qochoqlardan (ko‘pchiligi kambag‘allar va Yosh xivaliklarning tarafdorlari) harbiy guruh tuzilib, ularga siyosiy va harbiy ta‘lim berildi. Guruxdagilar soni o‘sib borib, 1919 yil oxirida qariyb 500 kishidan oshib ketdi. Bu guruh keyinchalik tuzilgan ko‘ngillilar qo‘shiniga asos bo‘ldi.

1919 yil oxiriga kelib, yuqorida aytib o‘tganimizdek, inqilobiy qo‘mitaga J.Sultonmurodov ham kiritildi. SHunisi xarakterliki, partiya va sovet tashkilotlariga kiritilayotgan xivaliklar Yosh xivaliklar partiyasi a‘zosi, deb emas, balki xivalik inqilobchilar, deb qayd qilib borilgan¹. SHu tariqa Xorazm Kommunistik partiyasini tuzish uchun dastlabki qadam qo‘yilgan edi.

Hujjatlardan ma‘lumki, 1920 yil may oyida 1-Butunxorazm kommunistlari partiyasining ta‘sis kengashi bo‘lib, unda Xorazm Kompartiyasi tuzilib, XKPning raisligiga Ahmadjon Akchurin tayinlangan edi. 1920 yil may oyida Markaz vakillarining ko‘rsatmasiga binoan,

¹ О.Қўшжонов., Н. Полвонов.Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007. -Б.328.

Xorazmda ko'p firqalik ta'qiqlangach, mahalliy xususiyatlarni o'zida ko'proq ifoda qiladigan firqa - Yosh xivaliklar partiyasi o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi (Tarixchi Q.Rajabovning yozishicha, Yosh xivaliklar 1921 yil mart oyigacha faoliyat ko'rsatganlar)¹. Yosh xivaliklar firqasining ko'pgina a'zolari ishtirokiyun firqa - kommunistik partiya a'ziligiga o'tishga majbur bo'ldilar. Ammo ular ishtirokiyun firqa safida ham, o'z milliy xususiyatlarini namoyon etishga harakat qildilar.

O'sha davrda Xorazmda komsomol (kommunistik Yoshlar ittifoqi), kasaba itgifoqi va boshqa jamoat tashkilotlari tashkil qilindi va faol ishlay boshladi. 1920 yil oktyabr oyida Kommunistik Internatsional-Kominternning Turkbyuro vakillari (A.Rahimboev rahbarligidagi bir guruh ishtirokiyun firqasi a'zolari) kelib, Xorazm Kompartiyasi (Xorazm ishtirokiyun firqasi)ning ish faoliyatini o'rganib, uni qoniqarsiz, deb topdi va 8 noyabrdagi majlisda Xorazm ishtirokiyun firqasini qayta tuzish hamda galdagi vazifalarini belgilab berdilar. 1920 yil 17 noyabrda armiya ichida siyosiy boshqarma (Purxiv) tashkil qilindi. Unga rahbarlik qilgan Hamza Musaev firqa nomidan barcha rahbarlikni o'z qo'liga oldi. Safonov rahbarligida bu tashkilot 1921 yil martdagi davlat to'ntarilishini o'tkazishda katta rol o'ynadi.

1920 yil dekabrda Xorazm ishtirokiyun (kommunistlar) firqasining rahbarlari Toshkent va Moskvaga komandirovka qilindi. Xorazm ishgirokiyun firqa Markaziy qo'mitasi byuro a'zosi va kogibi qilib tatarlardan Zokir Bekchurin tayinlandi. 1920 yil dekabr oyida Turkbyuro qarori bilan Xorazm ishtirokiyun firqasi Markaziy qo'mitasi tarqatib yuborildi. Uning vazifasi Purxivga yuklatildi. Xorazm qizil armiyasida ham tozalash o'tkazildi. XXSR hukumati rahbarlari ta'siridagi kishilar armiya safidan chiqarildi. Qizil

¹ Ражабов Қ. Ёш хиваликлар // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 3. - 498-500-бетлар.

askarlar orasida esa «siyosiy firqaviy ishlar» olib borildi¹.

XXSR hukumati II kurultoyining saylov oldi kompaniyasi davrida o'tkazilishi lozim bo'lgan tashviqot ishlarining loyihasida shunday yozilgan edi: «Biz hukumat boshida o'tirgan kishilar xonga qarshi kurashib, hurriyatni barpo qilgan inqilobchilarmiz, hukumat manfaatlarini, din va shariatni hamisha himoya qilib kelmokdamiz, shunga qaramay, ba'zi kishilar shahar va qishloqlarda ishtirokiyun firqa nomidan gapirib, hukumatning tutgan siyosatiga, umuman qonunlariga, muqaddas vaqf qoidalariga qarshi ish ko'rmoqdalar. Joylarda shunday odamlarning hukumatga dushman ekanligini, ularning so'zlariga ishonmaslik zarurligini xalqqa tushuntirish zarur»².

XXSR ni mustaqil respublika sifatida o'z ichki ishlarini o'zi mustaqil ravishda amalga oshirayotganligi RSFSRning XXSRdagi muxtsgr elchisi I.M.Bik va Xorazm ishtirokiyun firqasi rahbarlari nomi bilan ish olib borayotgan boshqa ayrim kishilarga yoqmas edi. Ular o'sha paytdagi Xorazmda mavjud murakkab siyosiy vaziyatdan foydalanib, doimiy ravishda davlat to'ntarishlari va hukumat raxbarlarini o'zgartirib turish siyosatini amalga oshirib kelganlar.

¹ Маткаримов М. Хоразм республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иктисоди. - 24-бет.

² Юсупов П.Х. Ўша асар. - 340-342-бетлар.

2.2. XXSR ning iqtisodiy va madaniy hayotida Yosh xivaliklarning o‘rni.

Xorazm Respublikasining dastlabki kunlaridanoq bolsheviklar mamlakatning iqtisodiy mustaqilligiga ham hujum boshladilar. RKP (b) MQ Siyosiy byurosining qaroriga binoan Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarini iqtisodiy birlashtirish uchun tyorgarlik boshlab yuborildi. 1923 yil 5-9 martda Toshkentda o‘tkazilgan Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarini iqtisodiy birlashtirish ga bag‘ishlangan 1-Iqtisodiy konferensiya – O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (SredazEKOSO) tuxilganligini ma’lum qildi. SHunday qilib, O‘rta Osiyo respublikalari qatorida Xorazm Respublikasi ham siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy hayotiga rahbarlik qilishning asosiy vositalari Rossiya nazoratiga o‘tdi.

Respublikada xo‘jalik boshqaruv organlari tashkil topdi. Xorazm Iqtisodiy Kengaslii (1923-yil) raisi Burhonov edi. 1924-yil bahorida respublika davlat plan komissiyasini tuzishga kirishildi. Bu organlar O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengasliiga bo'ysunar edi. Xorazm Iqtisodiy Kengasliining tuzilishi va faoliyat ko'rsatishi Xorazm respublikasining Rossiyaga iqtisodiy qaramligini kuchaytirdi⁵¹.

Hokimiyat tizimining cheklanmagan darajada kengayib borishi, shuningdek, siyosiy sabablar bilan o'zgartirilishi ham ko'zga taslilandi. Chunonchi, 1923-yil kuzida davlat apparati 10 marta qisqartirildi, «chistka»lar o'tkazildi.

Respublika tuzilgan dastlabki oylarda Xorazmda g'oyaviy siyosiy vaziyat keskinlaslib bordi. Buning sabablari Yosh xivaliklar, aholining ko'pchiligiga xos bo'lgan liberal, demokratik g'oyalar bilan so'1-ekstremistik

⁵¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.226.

inqilobiy siyosat o'rtasidagi nomuvofiqlik va ziddiyatlar bo'ldi. Yosh xivaliklar hukumati, respublika MIQ, boshqa milliy rahbar doiralar sharoitni, aholining urf-odatlarini, qadriyatlarni e'zozlab ish olib bordilar. Ammo qurolli tajovuz jarayonida Xorazmga kirib kelgan qizil qo'shinlar, ularning qo'mondonligi, dastavval yevropalik bolsheviklar respublikadagi ijtimoiy-siyosiy hayotga salbiy ta'sir ko'rsatdilar. Mahalliy sharoitni, xalq ommasi qarashlari, kayfiyatini nazar-pisand qilmay, tezkorlik bilan inqilobiy-ekstremistik chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishdilar⁵². Yaqindagina tuzilgan Xorazm kompartiyasi orqali siyosiy, ijtimoiy, xo'jalik o'zgartirishlarini joriy qilish yo'li tutildi. Ammo bu partiyaning siyosiy tajribasi bo'lmay, u keng omma bilan aloqa o'rnatish olmagan, o'z mustaqil dasturiga ega emas edi. Shunga qaramay, bu partiyaning yakka rahbarligini o'rnatish chora-tadbirlari ko'rildi.

Islom dini, masjidlar, madrasalar, ruhoniylarga, Yosh xivaliklar hukumatiga qarshi g'alamislik siyosati yurg'izildi. Vaqf mulklariga tahdid solindi. Yosh yigit-qizlarni inqilobiy ta'sir doirasiga tortishga harakat qilindi. Dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlarning huquqlari poymol etildi, mulklari tortib ohndi. Bunga, shuningdek, odamlarni tribunallar orqali va hatto sudsiz otib tashlashlarga Turkkommissiya vakili Skalov, boshqa harbiylar boshchilik qildilar. Ahvol bilan tanishish uchun Toslikentdan yuborilgan Broydo sodir etilayotgan jinoyatlar, ayollarni xo'rlaslini o'z ko'zi bilan ko'radi, ma'lumotnomasida bu haqda ochiq yozadi. Lekin xalqqa qarshi amaliyot davom etadi.

Bolshevikcha zo'ravonlarga qarshi ommaviy noroziliklar, hatto g'alayonlar ko'tarildi. Chunonchi, 1920-yil yozida Xivada katta yig'in bo'ldi, unda qizil armiyani, bolsheviklarni mamlakatdan haydasli, islom diniga

⁵² Jo'rayev N.Karimov SH. O'zbekiston tarixi. – Toshkent, Sharq, 2011.- B.200.

qarshi unsurlarni jazolasli qat'iy talab qilindi. Bunga javoban yig'inda qatnasligan ruhoniylar va oqsoqollardan 320 ga yaqin kishi qamoqqa olindi, ulardan bir qismi tergov va sudsiz otib taslilandi, qolganlar surgun qilindi.

Vaqf mulklariga munosabat hokimiyat organlari e'tiborida bo'ldi, bu orada kuraslilar davom etdi. 1920-yilda vaqflarni umuman yo'q qilish haqida e'lon qilindi, biroq Xorazm sovetlarining II qurultoyi (1920-yil may) bu qarorni bekor qildi. Vaqf davlatdan ajratildi, fuqarolarning shaxsiy ishi deb qaror qilindi. Lekin IV qurultoy (1923-yil oktabr) vaqf yerlarini musodara etish haqida qaror chiqardi. Bu masala bolsheviklar tomonidan dastlab 1920-yilda ko'tarilganida katta norozilik bildirilgan edi. Nozirlar kengashli rasi P.Yusupov «vaqflar daxlsiz bo'lib, ulardan tushgan mablag' asosan masjidlar, madrasalar va mullalarga harajat qilinadi», deb qat'iy uqtirdi. Natijada P.Yusupov hukumatiga qarshi fitna uyushtirilib, u 1921-yil 6-martda ag'darildi. Uning bir necha a'zolari qamoqqa olindi, hokimiyat revkom qo'lga o'tdi. Bu voqea mintaqada qattiq qoralandi.

1920-yil sentabr oyida bolsheviklar, qizil armiy aqo'mondonligi yana bir qabih xunrezlikni amalga oshirdi. Hukumat rasi muovini Qo'shmamedxon qo'mondonligi ostidagi turkman suvoriylari otryadi Junaidxon bilan aloqada gumon qilinib, hiyla yo'li bilan Xivaga chaqirib olindi va qo'qqisdan qurolsizlantirilib, 600 danortig'i otib taslilandi. Turkman aholisi ustiga jazootryadlari taslilandi, mollar talandi, natijada ko'pxo'jaliklar Eron hududiga ko'chib ketdi. Qizil armiya qismlarining bu jinoyatlarini Turkkomissiya rasi ham tan oldi.

G'oyaviy-siyosiy kurash davom etdi. Xalq ommasi, uning ilg'or vakillari mustaqillik uchun, adolatsizlikka qarshi kuraslini to'xtatmadilar. 1923-yil bahorida savdo-sanoat noziri Nurullayev RSFSRda muzokarlarda qat'iylik ko'rsatgani uchun Xorazmga chaqirilib, qamoqqa olindi. Rossiya

rahbariyatining ko'rsatmalari asosida 1923-yil yoz-kuzida Xorazm respublikasida tub siyosiy to'ntarish amalga oshirildi. Respublika hukumati sav-dogarlar va ruhoniylar qo'lida, shu sababli u kam-bag'allarga zid ish ko'rgan, deb e'lon qilindi. Qatornozirlar qamoqqa olindi. Konstitutsiyaga jiddiy o'zgartirishlar kiritildi. Aholining bir necha qatlamlari fuqarolik huquqlaridan mahrum etildi.

Mamlaktda xalqning sovet hukumatiga qarshi noroziligi kuchayib bordi. Hatto, IV qurultoyda XXSR Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (XSSR) deb o'zgartirilishi ham bu holatni oldini ola olmadi va aholining noroziligi jiddiy tus oldi, 1924-yil yanvarida katta g'alayon ko'tarildi. Xiva atrofida 10 mingdan ortiq olomon to'plandi⁵³.

Qo'zg'olonchilar bolsheviklarni, qizil armiyani Xorazmdan haydaslashini, soliqlar borasida adolat o'rnatilishini, islom dinining tahqirlanishiga barham berilishini, gunohsiz qamalganlarning ozodlikka chiqarilishini talab qildilar. Xivaga yordamga kelgan qizil qo'shinlar tazyiqi bilan qo'zg'olonchilar tarqaldilar. Lekin 214 kishi qamoqdan ozod qilindi, dinni ta'qib qilishga chek qo'yildi, qishloq xo'jaligi solig'i 80 foizga qisqartirildi⁵⁴.

Jamiyatdagi holat, siyosiy vaziyat respublika iqtisodiyoti, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, tijoratchilarning ahvoli va faoliyatida ham o'z aksini topdi. Hukumat, boshqaruv organlaridagi Yosh xivaliklar iqtisodiyotni ko'tarishga kirishdilar.

Respublika hukumatining faoliyati tasliqi savdoini tartibga solish va jonlantirishga qaratildi. 1921-yil no-yabrida tasliqi savdo bilan shug'ullanish

⁵³ Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. // Коллектив авт. – Т.: Шарк, 2000. – С. 626.

⁵⁴ O'sha asar. – С. 627-628.

hukumat nazorati ostiga olindi. Paxta, jun, qorako'l ten, beda urug'i, g'allani tasliqariga chiqarish taqiqlandi. Shu bilan birga, tasliqi iqtisodiy-savdo aloqalarida mustamlakachilikko'rinishlarining oldini olishga harakat qilindi. Butun-xorazm sovetlarining II qurultoyi Rossiya bilan savdoaloqalari teng asosda olib borilishi kerak, shundagina Xorazmda xo'jalikni ko'tarish mumkin, shu asnoda an'anaviy hamkorlar bilan «respublika tasliqi savdosini» rivojlantirish lozim, deb uqtirgan edi. Respublika MIQ 1922-yil martida «Bizning mamlakatimiz yana avvalgi mustamlaka bo'lib qolmasligi uchun yetishtiriladigan xom ashyo o'z mamlakatimizda ishlanadigan bo'lsin», degan masalani ilgari surdi. Bu ko'rsatmalarni amalga oshirish yo'lida amaliy qadamlar tashlandi.

Yosh xivaliklar partiyasi rahbari Polvonniyoz hoji YUsupov hukumati davrida xalq orasida katta e'tibor va martabaga ega bo'lgan kishilar hukumatning rahbar organlariga ko'proq tayinlanganlar. Hatto xonlik davrida hokim va oqsoqollik lavozimida bo'lgan ko'pgina kishilar ham o'z o'rnilarida qoldirilganlar. Masalan, Xonqa hokimi Muhammadxoji Aminaddin o'g'li Yosh xivaliklar davrida o'z mansabida qoldirilgan⁵⁵.

1920 yil yozda Madaniyat va maorif nozirining 18 Yoshgacha bo'lgan qizlarni ro'yxatga olish to'g'risidagi qaroridan norozi xalq va xivalik ulamolarning Olloqulixon madrasasi oldiga to'planib, hali ham ruslarning davlat boshqaruvidagi ta'siri kuchliligi haqidagi norozilik chiqishlari bahonai sabab bo'lib, Xivaning so'nggi xoni Said Abdulloxon va uning yaqinlari, ko'plab ulamolar Xorazm Xalq Sovet Respublikasi hududidan chiqarib yuborilib, hammasi Rossiya va Ukraina hududlariga surgun qilindi⁵⁶. Bu Xorazm Respublikasida qizil askarlar tomonidan amalga oshirilgan qatag'onliklarning dastlabki ko'rinishlaridan biri bo'ldi.

⁵⁵ O.Қўшжонов., Н. Полвонов. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007. -Б.324.

⁵⁶ Jo'rayev N. Karimov SH. O'zbekiston tarixi. – Toshkent, Sharq, 2011. - B.181.

1920 yil sentyabr oyida Qo'shmamedxon va uning yigitlari Xivada RSFSRning XXSRdagi vakillari Dubyanskiy va R.SHakirovlar buyrug'i bilan otib tashlanishi turkmanlar va o'zbeklar orasiga nizo solish, Yosh xivaliklar hukumati boshqaruviga halal berish, turli yo'llar orqali mustaqil Xorazm Respublikasini yo'q qilish uchun qilingan ig'vogarlik harakatlari edi. Holbuki, 1920 yil 13 sentyabrda RSFSR bilan mustaqil XXSR o'rtasida o'zaro tenglik, do'stlik va hamkorlik haqidagi Ittifoq shartnomasi imzolangan edi⁵⁷.

Ushbu shartnoma tayyorlanishi va imzolanishida o'z davrining bilimdon davlat arbobi, xalq jonkuyari, vatan istiqloli fidoyisi Bobooxun Salimovning xizmatlari katta bo'ldi. SHu bilan birga ushbu shartnoma SHarq xalqlari orasida RSFSRning obro'si oshishiga ham yordam berdi. CHunki bu kecha o'z mustamlakasi bo'lgan davlatni bugun mustaqil deb tan olish edi.

24 moddani o'z ichiga olgan mazkur shartnomani RSFSR tomonidan G. Chicherin va L. Karaxon, XXSR nomidan Bobooxun Salimov, Mulla O'roz Xo'jamammedov va Mulla Nurmammed Bobevlar imzolagan edilar. Podsho Rossiyasi bilan eski tuzilgan barcha shartnomalar tengsizlik asosida qurilgan shartnomalar sifatida bekor qilindi. Podsho Rossiyasi davrida Xiva xonligi xududida barpo etilgan barcha banklar, zavod-fabrikalar, savdo korxonalari va boshqalarni Xorazm Xalq Sovet Respublikasining mulki deb belgilandi⁵⁸. RSFSR va XXSR o'rtasidagi davlat chegarasi deb 1920 yil 13 sentyabrdagi chegara tan olindi va chegara belgilar qo'yishga kelishildi.

RSFSRning 1920 yil may-iyul oylarida Xorazmdagi muxtor vakili A. Izmaylov ittifoq shartnomasi imzolanishi arafasida Moskvaga kelib qolib, u bilan tanishgach, «... bu shartnomadagi so'zlar aslo Xiva xalqi va hukumatining yodu xayollarida yo'q turur. Olarga bu tariqa ko'p hukuq

⁵⁷ O.Қўшжонов., Н. Полвонов.Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007. -Б.325.

⁵⁸ Jo'rayev N.Karimov SH. O'zbekiston tarixi. – Toshkent, Sharq, 2011. – B.178.

bermak lozim ermas. Bu tariqa muhim huquqlar va yordamlarida talab qilmoqni Xorazm vakillarining o‘zlari topib yurgandir», degan⁵⁹.

Shundan keyin RSFSR hukumati ittifoq shartnomasiga ilovalar qo‘shishga harakat qilgan. Faqat Boboovun Salimovning qat’iyati shartnoma o‘zgarishsiz imzolanishiga sabab bo‘lgan. Ushbu ittifoq shartnomasi XXSR hukumati tomonidan 1920 yil 26 oktyabrda tasdiqlangan⁶⁰. Ammo bu shartnoma shartlari shunchaki sho‘ro Rossiyasining bosqinchilik siyosatini yashirish maqsadida ilgari surilgan edi va shu boisdan ham qog‘ozda qolib ketdi.

XXSR hukumati madaniy va ma’rifiy ishlarga ham keng e’tibor berishga harakat qildi. 1920 yil bahorida yangi hukumat tarkibida Mulla Bekjon Rahmonov boshchiligida maorif va madaniy nozirligi tashkil etildi⁶¹. Lekin yangi hukumat qo‘lida xali etarli mablag‘, maktablar uchun binolar, muallimlar, eng muhimi tajriba etishmas edi. Respublikada yangi tipdagi maktablar 1920 yil bahoridan tashkil qilina boshlandi. Dastlabki boshlang‘ich umuta’lim maktablari Xiva, Yangi Urganch, Kat, Darg‘on ota shaharlarida paydo bo‘ldi. Bu maktablarda darslar o‘zbek va turkman tillarida olib borildi. Muallimlar etishmasligi sababli, eski maktab xodimlaridan foydalanildi.

Shu bilan birga, maorif nozirligining maxsus topshirig‘i bilan Xorazmdagi mavjud 1500 ga yaqin eski maktablar va 130 ta madrasalarning o‘quv dasturiga qisman o‘zgarishlar qilindi, diniy bilimlar bilan bir qatorda tarix, jo‘g‘rofiya, arifmetika, o‘zbek tili va boshqa dunyoviy fanlarni o‘qitishda Yosh xivaliklarning o‘rni va faoliyati muhim bo‘ldi.

1923 yil yoziga kelib, XXSR dagi yangi tipdagi boshlang‘ich maktablar soni 29 taga etdi. Shuningdek, 9 ta maktab internat va 3 ta ixtisoslashgan

⁵⁹ Юсупов П.Х. Ёш хиваликлар гариhi. 288-бег.

⁶⁰ Туркестан в начале XX века: К истории истоков национальной независимости. - С. 300.

⁶¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.227.

namuna maktablari faoliyat ko'rsatdi. Ularda jami 1600 nafardan ortiq o'quvchi Yoshlar bilim oldilar. Respublika xalq maorifi katta Yoshdagi aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish masalasiga ham alohida e'tibor berdi. Savodsizlikni tugatish maktablariga 17 yoshli 35 yoshgacha kishilar jalb qilindi. Shahar va qishloqlarda savodsizlikni tugatish kurslari va maktablari ochildi. Ushbu maktablarda 1921 yilning o'zida 410 kishi, 1923 yilga kelib esa 767 ta kishilar jalb qilindi⁶².

1921 yil sentyabrda Xivada ochilgan Xalq universiteti respublika madaniy hayotida katta voqea bo'ldi. Xalq xo'jaligining turli sohalariga kadrlar tayyorlash uchun tashkil etilgan bu universitetda o'qish 3 yilga muljallangan bo'lib, dastlabki yilda unga 83 nafar mahalliy Yoshlar qabul qilindi. 1922 yildan boshlab, Xivada qisq amuddatli kurslar o'rniga 3 yillik muallimlar seminariyasi ochildi. 1923 yilga kelib, bular pedagogika texnikumiga aylantirildi.

Shu bilan birga, Xorazm Respublikasining bir qator o'quvchi Yoshlari O'rta Osiyo va Rossiyaning Markaziy shaharlariga o'qishga yuborildilar. Chunonchi, 1923 yilda Toshkent, Moskva, Qozon, Orenburg va boshqa shaharlarga Xorazmdan 70 nafar, 1924 yilda esa 150 dan ortiq yigit va qizlar turli ixtisosliklar bo'yicha o'qishga yuborilgan edi.

Xorazm Respublikasida tarix ilmiga ham alohida e'tibor berildi. Xalq maorifi nozirligida ishlayotgan tarixchi olim Muhammad YUsuf Bayoniy (1870-1925) hukumat topshirig'iga binoan "Xorazm tarixi" asarini yozdi. Bayoniy o'zining 1920 yildagi bolsheviklar bosqinidan oldin tayyorlagan "SHajarai Xorazmshohiy" asarini qayta ishlab, Xorazmning haqqoniy tarixini yaratdi. Xorazm tarixi asari 16 boban iboart bo'lib, bizgacha 8 bobi etib kelgan, xolos. O'sha yilda yaratilgan "Xorazm musiqasi tarixi" nomli tadqiqot ham muhim tarixiy asarlar sirasidan joy oldi. Bu asar 1925 yilda

⁶² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.228.

Moskvada chop etilgan edi.

Xorazm Respublikasi madaniy hayotida Xudoyobergan Devonovning o'zni salmoqli bo'ldi. U birinchi o'zbek fotosuratchisi, kinochilaridan bo'lib, butun umrini Xorazmning arxitektura yodgorliklarini, xorazmliklarning turmush-tarzini, diyor tabiatini, respublika hayotida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy –siyosiy, madaniy voqealarini fotosuratga va kino ta'sviriga tushiriga bag'ishladi. X. Devonov Xorazm xalqi uchun muhim tarixiy ahamiyatga bo'lgan bir mingga yaqin fotosurat, o'nga yaqin hujatli kinolavhalarini madaniy meros sifatida qoldirdi⁶³.

XXSR da musiqa va teatr san'atini zamonaviylashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Xivada taniqli bastakorlar, hofizlar, raqqosalar, qiziqchi-masxarabozlar to'planib, ular ishtirokida badiiy to'garaklar, konsert gruppalari, maqomchilar ansambllari tashkil etildi. 1920 yil o'rtalarida Xivada dastlabki sahna teatriga asos solindi.

20 - yillarning dastlabki oylarida Xorazm hayotida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar adabiy jarayonga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xorazm badiiy adabiyoti tashkil qilingan Yosh Xorazm Xalq Respublikasini qo'llab-quvvatladi, unga ozodlik, demokratik tuzum timsoli sifatida qaradi. Bayoniy, Safo Mug'anniy, Devoni, Soyib Nazariy va boshqalar o'zlarining she'r va g'azallarida yangi xalq respublikasiga umid bilan qaradilar va uni olqishladilar⁶⁴.

XXSR hukumati matbuot ishlarini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor berdi. 1920 yil mart oyidan boshlab respublikada birinchi "Inqilob quYoshi" nomi bilan o'zbek va turkman tillarida gazeta nashr qilina boshlandi. 1921-1924 yillarda yana "Xorazm xabarlar", "Qizil Yoshlar ovozi", "Ishchilar

⁶³ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.230.

⁶⁴ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.231.

tovushi” o‘zbek va turkman tillarida, “So‘nggi axborot”, “Oq yo‘l” gazetalari qozoq tilida⁶⁵, “Najot” fors tilida nashr qilindi⁶⁵.

Xorazm respublikaining so‘nggi yillarida ham milliy taraqqiyparvar kadrlarning respublikani isloh qilish yo‘lidagi harakatlari so‘nmagan. Bu borada P. Yusupovlarning Broydo bilan olib borgan muzokaralar tasdiq bo‘ladi. Bu haqda o‘z xotiralarida P. Yusupov shunday deydi: “5-aprelda birodar Sulton Qori birlan tovarish Broydoni ko‘rib, ulamolar qurultoyi haqinda buyurdi: uch kishidan murakkab komissiya bo‘lsin, deb. Sulton Qori ko‘rsatdi: birinchi Bobooxun, ikkinchi Nurjon oxun, uchinchi Polvonniyoz Hoji, - dedi. Kechda soat 4 da Bobooxun va Nurjon oxun birlan kelinglar, deb manga aytdilar. Kechda bayon bo‘lg‘on vaqtda keldik. Tovarish Broydo aytdi: - ulamolar qurultoyini 14 aprelga chaqirib hozir qiling, har tarafga bir necha da‘vatnomalar yuboringlar. Ulamolar qurultoyinda ko‘rilaturg‘on masalalar: 1-vaqf, 2-bosmachilik, 3-ulamolarni xalq sho‘rolari jumhuriyatiga yaqin qilmoq, 4-madrasalarni isloh qilish va boshqalar, - dedi. 6 aprelda komissiyalar da‘vatnomalarni hozirlamoqqa mashg‘ul bo‘ldilar. Ham ushbu kun kechda tovarish Broydo, tovarish Gorodetskiy ham Sidorovlar Bobooxunning Madaminxon madrasasidagi hujrasiga keldilar. 2-3 soat har tarafdin so‘ylashib suhbat qilib o‘tirdik. Ondin so‘ng qaytib ketdilar. Ham ertaga safaratxonaga bordik. Ba‘ziy so‘zlar bo‘ldi. Ham Og‘ajon Eshonning o‘g‘li Abdurahmon Maxsim ham O‘roz Eshonlarni qo‘shib yubordi, madrasaga borib kalomulloni ahd qildirib yubormakka va mundin so‘ng hech bir vaqt hukumatga qarshi bo‘lmaslikka. Balki qarshi bo‘lg‘onlar bo‘lsa nasihat qilib isloh qilmoqqa. Ham hukumatga e‘lon qilmoqqa va‘da qildi. Shuning birlan ularni xalos qilib yubordilar. 17 aprel 1924 yilda ulamolar qurultoyi ochildi. Tovarish Broydo olam to‘g‘risinda ko‘p so‘zlar so‘ylab, birinchi ulamolar qurultoyini tabrik qildi. Birlanchi majlis tamom bo‘ldi.

⁶⁵ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.231.

Ikkilanchi majlis vakillarini yig'nab olib sarf qilmoq uchun vaqf idorasi tashkil qilmoq, uchinchi majlis-madrasa, maktablarni isloh qilmoq, to'rtlanchi majlis tamomi ishlarni bitkarib hay'ati fiqhga saylab qo'ymoq masalalari to'g'risida qaror qildi. Vaqf idorasiga uch kishi saylandi. Sho'rolar hukumati haqida ham ushbu ulamolar qurultoyida masala ko'rildi. Ulamolar Maskavdin kelgan tovarish Broydoga duolar qilishib ko'p shodlik birlan qurultoyi bitkazib, xo'shlashib o'z joylariga qaytib ketdilar"⁶⁶.

Yosh xivaliklarning keyingi taqdiriga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1920 yilning oxiri - 1921 yilning boshlariga kelganda bir tomondan XXSR hukumati va Xorazm ishtirokiyun firqa rahbarlari, ikkinchi tomondan RSFSRning XXSRdagi muxtor vakili M.Safonov, Purxiv boshlig'i Hamza Musaev, harbiy nozir Shayhutdin Hasanov, Xorazm qizil armiyasi siyosiy xodimi F.Vaisov singari rahbarlar o'rtasida kurash kuchayib bordi. Hatto 1921 yilning boshida H.Musaev, SH.Hasanov, F.Vaisovlar tezda davlat to'ntarishi qilib, Polvonniyoz Hoji Yusupov rahbarligidagi barcha hukumat a'zolarini qamoqqa olish va otish lozimligi haqida ham takliflar kiritishgan edi. Ular bu «takliflari»ni 1921 yil mart oyida amalga oshirishgan. Keyinchalik XXSR MIK raisi bo'lgan Otamaxzumoxun Muhammadrahimov hukumat ishlariga ishtirokiyun firqasi a'zolarining rahbarlik qilishiga chek qo'yishga harakat qiladi. U bir mamlakatda ishtirokiyun firqasi Markaziy ko'mitasi va respublika Markaziy Ijroiya Qo'mitasidan iborat ikki rahbar hukumat organi bo'lishi mumkin emas, degan edi.

Xorazmda amalga oshirilayotgan bunday ishlar Markazdan kelgan «o'rtoqlar»ga yoqmas edi. Shuning uchun ham RSFSR MIQ va Xalq Komissarlari Soveti 1921 yil noyabrda RKP (b) MK Turkiston byurosi va RSFSR MIQ va XKS Turkiston komissiyasi (Turkkomissiya) raisi AA.Ioffe

⁶⁶ P. Xojiyusupov. "Yosh xivaliklar harakati: quvonchlar iztiroblar, fojealar" // Nashrga tayyorlovchi Umid Bekmuhammad // ziyo.com.uz.

rahbarligida XXSRga favqulodda komissiya yubordi. Komissiya Xorazmda amalga oshirilayotgan ishlarni bekor qilishga harakat qildi⁶⁷. Bunga qarshi Xorazm respublikasi MIQ ning o'sha paytdagi raisi Otamaxzumoxun Muhammadrahimov komissiya raisi A.A. Ioffega, Xorazm respublikasining ichki ishlariga aralashadigan bo'lsa, 24 soat ichida Xorazmni tashlab chiqib ketishi haqida ultimatum topshirdi⁶⁸.

XXSR ni mustaqil respublika sifatida o'z ichki ishlarini o'zi mustaqil ravishda amalga oshirayotganligi RSFSRning XXSRdagi muxtor elchisi I.M.Bik va Xorazm ishtirokiyun firqasi rahbarlari nomi bilan ish olib borayotgan boshqa ayrim kishilarga yoqmas edi. Ular o'sha paytdagi Xorazmda mavjud murakkab siyosiy vaziyatdan foydalanib, doimiy ravishda davlat to'ntarishlari va hukumat raxbarlarini o'zgartirib turish siyosatini amalga oshirib kelganlar.

Masalan, XXRning hukumat boshliqlaridan bulgan va milliy va mustaqil siyosat yurgiza boshlagan P.Yusupov hukumati RSFSRning Xorazmdagi vakillari, shovinist shaxslarga yoqmadi. Natijada 1921 yil martida Polyozhoji va uning hukumat nozirlari majburiy ravishda ishdan olinadi, o'zlari badnom qilinadi. P. Yusupov va ba'zi safdoshlari qochib yashirinishga majbur bo'ladi.

Garchi P. Yusupov keyinchalik Otamaxzumoxun Muhammadrahimov hukumat raisligiga kelgan paytda "oqlanib" yana XXSRning moliya, soliq ishlarida faoliyat yurita boshlasada, butunlay siyosatdan chekinishga harakat qiladi. Zero, kuchlar nisbati RSFSRning shovinist arboblari qo'liga butunlay o'tib ketgandi. Xullas, 1924-25 yillar voqealaridan keyin Polyozhoji Xiva muzeyida oddiy xodim sifatida ishlaydi, voqealarning borishini kuzatib boradi. Tabiiyki, o'z davrining ilg'or ziyolisi, doimiy ravishda gazet-

⁶⁷ О.Қўшжонов., Н. Полвонов.Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007. -Б.331.

⁶⁸ Маткаримов М. Ўша асар. 38- 39-бетлар.

jurnallarga oshnolik, qolaversa siyosiy voqealarning “qaynoq” jarayonida kechgan umr sabab, u tarixning jonli guvohi sifatida kundalik yozishni odat qilgandi. Xiva muzeyidagi sokin hayot uni kundaliklar asosida xotiralar yozishga undaydi.

XULOSA

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xiva xonligida milliy taraqqiyparvarlik harakati sifatida vujudga kelgan jadidchilik harakati va ning faollari tomonidan tuzilgan “Yosh xivaliklar” tashkiloti va bu tashkilotning o‘ziga xos faoliyati to‘g‘risida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

Rossiya bosqini sabab Xiva xonligiga kirib kelgan kapitalistik ishlab chiqarish bilan bog‘liq yangiliklar, ma‘rifiy va inqilobiy g‘oyalar, shuningdek, Muhammad Rahimxon II (Feruz) ning yangiliklarga moyilligi, ma‘rifat va maorifga xomiyligi Xivadagi jadidchilik harakatiga asos bo‘ldi. XIX asrda yashab, ijod qilgan shoir, tarixchi, tarjimonlarning asarlaridagi g‘oyalar va tashqi savdo-madaniy aloqalar ilg‘or fikrli, taraqqiyot tarafdorlari bo‘lgan kishilar guruhi - ma‘rifatparvarlarning shakllanishiga turtki bo‘ldi.

Davlat amaldorlaridan qozikalon Salimoxunning xayrixohligi, Komil Xorazmiy mirzaboshining amaliy harakatlari, bosh vazir Islomxo‘ja amalga oshirgan islohotlar Xiva xonligidagi jadidchilik harakatining o‘ziga xosligini tashkil etadi. Ya‘ni, davlat rahbarlari yangi usul maktablarining tashkil etilishi va faoliyatiga yordam berganlar.

Xorazm jadidchiligining o‘ziga xos tomonlaridan biri shuki, ularda matbuot va gazetachilik keng yo‘lga ko‘yilmagan va bu g‘oyalarni keng xalq ommasi orasida targ‘ib qilish imkoni bo‘lmagan. Bu harakat asosan yuqori va o‘rga tabaqa vakillari orasida mazkur harakat kengroq yoyildi. Jadidchilik harakati qatnashchilari orasidan Yosh xivaliklar tashkiloti partiya sifatida o‘sib chiqdi va bu harakat Xorazm jadidchiligida ma‘rifiy harakatdan ijtimoiy va siyosiy harakat darajasiga ko‘tarilib borgan.

1917 yilgi Rossiyadagi siyosiy voqealar, ya‘ni podsho samoderjaviyasining ag‘darib tashlanganligi haqidagi xabarni Xiva xonligi jamiyatining eng ilg‘or vakillari bo‘lgan jadidlar ayniqsa umid bilan qarshi oldilar. “Yosh xivaliklar” harakati vakillari o‘z mamlakatlarining tarixiy shart-sharoitlarini e‘tiborga olib,

dastlabki paytlarda monarxiyacha tuzumni yo‘q qilishni o‘z maqsadlari qilib qo‘ymadilar. Bu taraqqiyarvarlar avvalo yuqoridan turib demokratik islohatlar o‘tkazish yo‘li bilan xonliklarning kapitalizm va ijtimoiy taraqqiyot yo‘lida rivojlanishini ta‘minlashga harakat qildilar.

Yosh xivaliklarning dastlabki islohatchilik harakati 1917 yil 5 aprelda - Xorazm tarixida ilk bor xalqni namoyishga chorlab, Asfandiyorxon saroyida uni manifest imzolashga, idorai marshrutiya –parlamentar kengash tuzishga majbur qiladi.

Asfandiyorxon, uning atrofidagi reaksiyon amaldorlar progressiv o'zgarishlar, ayniqsa, xon hokimiyatining cheklanishini istamadilar. Yosh xivaliklar hamda Majlisga qarshi doiralar o'z kuchlarini to'play boshladilar va qarshi harakatga kirishdilar. Asfandiyorxon Yosh xivaliklarga qarshi fitna uyushtirdi. Yosh xivaliklar hukumati faoliyatining dastlabki bosqichi (1917-yil 26-apreldan iyun o'rtalarigacha) shu bilan yakunlandi. Asfandiyorxon o'z mavqeini mustalikamladi, demokratik o'zgarishlar jarayoniga to'siqlar qo'yildi, xon manifestida aytilgan islohotlar bekor qilindi.

Yosh xivaliklar harakati 1904-1905 yillarda hamfikrlar, 1910 yil boshlarida manfaatlar guruhi sifatida shakllangan bo'lsa, 1917 yilda amaldorlar, ma'rifatli boylar, milliy burjuaziya va ziyolilarning Xiva xoniga muxolifatdagi siyosiy kuch, 1918 yilda esa rasmiy siyosiy pargiya sifatida namoyon bo'lgan. Bular dunyoqarashining shakllanishi va tadrijiy rivojlanishida xonlikdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, Turkiya, Eron, Rossiya va Turkistondagi siyosiy o'zgarishlar ob'ektiv sharoit sifatida katta ta'sir qilgan hamda rus inqilobchilari, soldat sho'rolari va Turkistondagi maxalliy inqilobchilar ta'siri sub'ektiv omil sifatida katta rol o'ynagan.

Demak, jadidchilik harakatidan o'sib chiqqan Yosh xivaliklar partiyasi 1918 yil iyun oyida Xorazm aholisi manfaatlarini himoya qiluvchi, o'z

dasturi va tashkiliy tuzilishiga ega bo'lgan rasmiy siyosiy partiya sifatida to'la shakllandi. Biroq aynan o'sha yillar Yosh xivaliklar partiyasi a'zolari bolsheviklarga g'oyaviy jihatdan yaqinlashdilar va ularning ta'siriga tushgan edilar. Xorazm Xalq Sovet Respublikasining dastlabki hukumati tarkibi ham asosan Yosh xivaliklar partiyasi a'zolaridan saylanib, ular respublikaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyatga loyiq ishlarni amalga oshirdilar.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 31 б.
2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 б.
3. Алимова Д.А. история как история, история как наука. 2 часть. – Ташкент: Узбекистан, 2009.
4. Алимова Д.А, Рашидова Д.А. Маҳмудхўжа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури. - Тошкент: Академия, 1999.
5. Абдурасулов А. Хива. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
6. Баёний. Шажарайи Хоразмшохий. - Тошкент, 1992.
7. Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. - Т.: Университет, 1999.
8. Jo'rayev N.Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. – Toshkent, Sharq, 2011.
9. История Хорезмской Народной Советской Республики. - Тошкент: Фан, 1976.
10. М.Маткаримов. Хоразм республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. – Урганч, 1993.;
11. К.Мухаммадбердиев. История Хорезмской революции. - Тошкент: Фан, 1986.
12. Г.Непесов. Из истории Хорезмской революции. Т.: Узбекистон, 1962.
13. И.В.Погорельский. История Хивинской революции и Хорезмской Народной Советской Республики. –Л.: Университет, 1984.
14. Ражабов Қ. Ёш хиваликлар // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 3. – Тошкент, 2002.
15. Т. Тухтаметов. Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. – М.: Наука, 1969.

16. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. //Коллектив авт. – Тошкент: Шарк, 2000.
17. Хоразм тарихи. 1-2жилдлар. – Урганч: Хоразм, 1997. Юсупов П.Х. Ёш хиваликлар тарихи (Хотиралар). - Урганч: Хоразм, 2000.
18. Йўлдошев. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент, 1959.
19. Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар. Т.: Эльдинур, 1998.
20. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т. 3. – Тошкент, 2002.
21. Ўзбек давлатчилиги тарихи очерклари / Масъул муҳаррирлар: Д. Алимова,Э.Ртвеладзе. – Тошкент: Шарк, 2001.
22. О.Қўшжонов. Н.Полвонов. Хоразмдаги ижтимоий сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар.(XIX аср иккинчи ярми ва XX аср биринчи чораги). – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007.
23. Н.Қаландаров. Образование и деятельность ХКП. – Т.: Узбекистон, 1975.
24. Р. Хojiyusupov. “Yosh xivaliklar harakati: quvonchlar iztiroblar, fojealar” // Nashrga tayyorlovchi Umid Bekmuhammad // ziyo.com.uz.

Milliy matbuot nashrlari:

1. Холбоев С. Жадидчилик ва истибдод (Хоразм республикаси ҳақида). // Ишонч, 1997 йил, октябрь.

Internet ma'lumotlari:

1. www.ziyo.com.uz.
2. www.ziynet.uz